

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo`lyozma huquqida

UDK

VOXIDOV ABDULLA ABDURAZZOQ O`G`LI

**MOLIYAVIY MUASSASALARDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY
USLUBLARINI JORIY ETISH MUAMMOLARI**

5A230201- Menejment (infratuzilma)

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

i.f.n. F.A.Djalilov

Toshkent 2013

MUNDARIJA

Kirish	
... 3	
I-Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy muassasalarning ahamiyati va zarurligi	6
1. Boshqaruvning mazmuni va zarurligi	6
2. Moliyaviy muassasalarning mohiyati va ahamiyati.....	12
3. Moliyaviy muassasalarning o`ziga xos xususiyatlari.....	19
II-Bob. Moliyaviy muassasa sifatida tijorat banklari faoliyatini tashkil etish va boshqarish amaliyotining tahlili	24
1. Tijorat banklarining moliyaviy muassasa sifatidagi rivojlanish tendentsiyalari.....	24
2. Tijorat banklari xizmatlari bozorining rivojlanish tahlili.....	36
3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashda moliyaviy muassasa sifatidagi faoliyatini boshqarishning samaradorligini baholash.....	42
III-Bob. O`zbekiston respublikasida moliyaviy muassasalarini zamonaviy boshqarishni takomillashtirish	48

1. Moliyaviy muassasalarni boshqarishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo`llari.....	4
8	
2.O`zbekiston Respublikasida moliyaviy muassasalarni boshqarishni takomillashtirish.....	
55	
Xulosa va takliflar.....	61
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	
65	

Kirish

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Ma'lumki, yaqin besh yilda respublikamiz bank-moliya tizimini isloh etishni yanada chuqurlashtirish va uning barqarorligini oshirish, banklar va butun bank-moliya sohasi faoliyatini baholash tizimlari va yondashuvlarni tubdan o`zgartirish, bank faoliyatini tashkil etishning xalqaro andozalar, me'yorlar va baholash ko`rsatkichlariga mos ravishda yanada yuqori darajaga ko`tarilishini ta'minlash maqsadida Prezidentimizning 2010 yil 26 noyabrdagi «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko`rsatkichlariga erishishning ustuvor yo`nalishlari to`g`risida»gi PQ-1438-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga binoan o`tgan yil davomida, banklarning barqarorligi va kapitallashuv darajasini oshirish, ularning barqaror resurs bazasini mustahkamlash, aktivlar sifatini yaxshilash, investitsion faolligini kuchaytirish, shuningdek, samarali bank nazoratini amalga oshirish va bank

qonunchiligini takomillashtirish hamda uni xalqaro andozalarga muvofiqlashtirish borasida qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, bank tizimi barqarorligini oshirish va banklarning mustahkam resurs manbalarini shakllantirish maqsadida, tijorat banklari tomonidan 2011-2015 yillarda umumiy kapital hajmini 2,1 barobarga oshirish yuzasidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar ijrosi to'liq ta'minlanmoqda. 2011 yilda banklar kapitallashuvi, ularning barqarorligi va likvidligini yanada mustahkamlashga qaratilgan izchil va aniq maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida 2011 yilda tijorat banklarining jami kapitali 2010 yilga nisbatan 30 foizga oshib, joriy yilning 1 yanvar holatiga 5,3 trln. so'mni, bank aktivlari esa 32,4 foizga oshib, 27,5 trln. so'mni tashkil etdi. Avvalgi yillarda "Fitchs Reytings", "Mudis" va "Standart and Purs" kabi etakchi xalqaro reyting kompaniyalarining «Barqaror» reytingini olgan tijorat banklari soni 15 tani tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilda ularning soni 23 taga etib, bank tizimi jami aktivlaridagi salmog'i 98 foizdan oshib ketdi.

Qayd etish lozimki, O'zbekiston bank tizimi ko'rsatkichlari xalqaro standart talablariga javob beribgina qolmay, ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori darajaga ham egadir.

Xususan, bugungi kunda bank tizimi kapitalining etarlilik darajasi 24,2 foizni tashkil qilib, qabul qilingan xalqaro Bazel qo'mitasining minimal talabidan (8 foiz) 3 barobarga yuqori bo'lsa, bank barqarorligini baholash omillaridan biri bo'lgan bank tizimining joriy likvidlik darajasi bir necha yillardan buyon 65 foizdan yuqori bo'lib, o'rnatilgan minimal daraja (30 foiz)dan 2 barobarga ko'pdir.

Respublika bank tizimini rivojlantirish va uning barqarorligini oshirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijalari 2011 yil yakunlariga ko'ra, bank tizimi bo'yicha «banklarning umumiy kapitali etarliligi», «tijorat banklari likvidligi», «depozitlar hajmining dinamikasi», «kredit qo'yilmalari hajmining o'zgarishi» indikatorlari «yuqori daraja»dagi baholarga ega ekanligini ko'rsatdi.

Moliya-bank tizimini yanada isloh etish va barqarorligini oshirishning asosiy yo`nalishlari sifatida moliya-bank sohasiga xususiy kapitalni jalb etish, yangi jozibali omonat va depozitlarni tatbiq etish, moliya-kredit tashkilotlari tomonidan ko`rsatilayotgan bank xizmatlarining turi va ko`lamini kengaytirish hamda moliya bozori infratuzilmasini yanada mustahkamlash yo`li bilan aholi hamda xo`jalik sub'ektlarining bo`sh mablag`larini bank aylanmasiga keng jalb etish bo`yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish bo`yicha aniq maqsadli vazifalar amalga oshirilmoqda.

Shunga ko`ra moliyaviy muassasalarning iqtisodiy tabiatini o`rganish, uning taraqqiyot omili sifatidagi imkoniyatlarini ochib berish, tarkibiy qismlarini har tomonlama rivojlantirish tadbirlarini amalga oshirish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot ob'ekti va predmetining belgilanishi. Ishning ob'ekti bo`lib, "Turon" ochiq aktsiyadorlik tijorat banki tanlangan. Tadqiqotning predmeti bo`lib, moliyaviy muassasalarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy munosabatlaridagi jarayonlari hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tadqiqot maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy muassasalarda boshqaruvning zamonoviy usullarini joriy etishdagi muammolar va ularni bartaraf etish bo`yicha tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- moliyaviy muassasalarning mazmuni va zarurligini aniqlash;
- moliyaviy muassasalarning mohiyati va ahamiyatini o`rganish;
- moliyaviy muassasalarning o`ziga xos xususiyatlarini o`rganish;
- tijorat banklarining moliyaviy muassasa sifatidagi rivojlanish tendentsiyalarini tahlil qilish;
- tijorat banklari xizmatlari bozorining rivojlanish tahlilini amalga oshirish;
- iqtisodiyotni modernizatsiyalashda moliyaviy muassasa sifatidagi faoliyatini boshqarishning samaradorligini baholash.

-moliyaviy muassasalarni boshqarishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo`llari bo`yicha tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari . Moliyaviy muassasalarni boshqarishning zamonaviy usullari masalalari ishda kurib chiqilgan va kelajakda moliyaviy muassasalarda innovatsion boshqaruv usullaridan foydalanishdan alohida ahamiyat kasb etish mumkin.

Mavzu bo`yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Moliyaviy muassasalarni boshqarish sohasida xorijlik olimlardan I.Shumpeter, M.Porter, Dj.Brayt, R.Jochimsenlar rossiyalik olimlaridan E.N.Jiltsov, T.S.Xachaturov, V.N.Kazakov, M.A.Gusakov, B.M.Grinchel, N.E.Kostileva, Staxanov V.I, Fedko V.P., Fedko N.G va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Respublikamiz olimlaridan B.Yu. Xodiev, Sh.N, Zaynutdinov, A.V. Vaxobov, T.Bobokulov, V.A.Kotov, F.Mirzaev va boshqalar tomonidan moliyaviy muassasalarning boshqarishdagi zamonaviy dastaklar va ularni boshqaruvi yo`nalishlarini nazariy va amaliy muammolariga doir qator tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqotda qo`llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tadrijiy tahlil, matematik-statistik, qiyosiy taqqoslash, ekspert baholash, statistik guruhlash va boshqa usullardan ham foydalaniladi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalardan moliyaviy muassasalarni boshqarishning zamonaviy uslublarini joriy etishda, boshqaruvga oid tegishli qarorlar va chora-tadbirlar belgilashda foydalanish maqsadli hisoblanadi.

Shuningdek, ayrim nazariy tavsiyalardan “Bank menejmenti”, “Infratuzilma iqtisodiyoti”, “Korporativ boshqaruv va raqobatni rivojlantirish” kabi fanlari bo`yicha ma`ruza matnlarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi yangiliklariga qo`yidagilarni kiritish mumkin:

- moliyaviy muassasalarning mazmuni va zarurligini aniqlanadi;
- moliyaviy muassasalarning mohiyati va ahamiyatini o`rganiladi;

- moliyaviy muassasalarning o`ziga xos xususiyatlarini o`rganiladi;
- tijorat banklarining moliyaviy muassasa sifatidagi rivojlanish tendentsiyalarini tahlil qilinadi;
- tijorat banklari xizmatlari bozorining rivojlanish tahlilini amalga oshiriladi;
- iqtisodiyotni modernizatsiyalashda moliyaviy muassasa sifatidagi faoliyatini boshqarishning samaradorligini baholanadi;
- moliyaviy muassasalarni boshqarishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo`llari bo`yicha tavsiyalar beriladi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

1.Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy muassasalarni boshqaruvning ahamiyati va zarurligi

1.1.Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy muassasalarni boshqaruvning ahamiyati va zarurligi

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo`jalik yuritishning yuksak daromadlariga erishilishini ta'minlovchi samarali usullari va uslublarini izlash alohida ahamiyat kasb etmokda. Bu maqsadga erishuvda ishlab chiqarishni boshqarish uslublari hamda vositalarni takomillashtira borishga alohida rol ajratiladi.

Ma'lumki, rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida moliyaviy muassasalarni boshqarish borasida boy tajriba to'plangan. Shu tajriba asosida boshqaruv sohasi rahbarlari va mutaxassislarining yangi avlodini tarbiyalash respublikamizda ham tobora keng yoyilmoqda.

Ayni shu masala e'tiborga molik topilganligi bejiz emas, chunki boshqarish darajasi bilan xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Boshqaruvning yuksak darajasi bilan yuqori darajadagi mehnat intizomi va mehnat unumdorligi, yuqori daromadlar va shunga muvofiq ravishda tannarxning, resurslar isrofgarchiligining pastligi o'zaro uyg'unlashib ketadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek «O'zbekiston o'zining ishonchli va to'lov qobiliyatiga ega hamkor ekanini, mamlakatimizda chet el sarmoyasini jalb etish bo'yicha har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratilganini amalda isbotlamoqda.

2011-2012 yillar davomida o'zlashtirilgan chet el investitsiyalari hajmi 2,5 barobardan ko'proq oshganining o'zi ham buni tasdiqlab turibdi”¹.

Xorijiy mamlakatlarda allaqachonlardan beri nihoyatda katta ahamiyat berib kelinayotgan boshqaruv jarayoni shu tariqa rivojlanib boradi. XIX asr oxiri XX asr boshida boshqaruv fani va amalyotining dunyoviy markazi bo'lgan Frantsiyada shunday holat yuz bergan. Anri Fayol bu sohada etirof etilgan peshqadam sanaladi, u boshqarish bu barcha resurslardan eng ko'p darajada foyda olib, jamoani uning maqsadi sari etaklashni anglatadi», deya ta'kidlaydi.

Keyinroq 20 yillarga kelib ishlab chiqarishni, mehnatni boshqaruvni tashkil qilish bobida Germaniya oldingi marraga chiqib oldi. Milliy an'ana va madaniy unsuri bulmish nemislarga xos aniqlik va mehnatsevarlik bu masalada qoyilmoqom darajada qo'l keldi, zero ayni shu sifatlar ishlab chiqarishning muvaffaqiyatli rivojlanishiga ko'p jihatdan yordam beradi. Shuning uchun ham ikkinchi jahon urushi boshlanishi davrida Germaniya iqtisodiyoti beqiyos katta

¹ I.A.Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi.O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.»O'zbekiston .T.2009.y.

imkoniyatlarga ega bo'lgan, eng yuksak darajada taraqqiy etgan va qudratli iqtisodiyotlardan biri bo'lganligi bejiz emas.

Ikkinchi jahon urushi tugashidan ko'p o'tmay Amerika ishlab chiqarishni boshqarish sohasida barcha tomondan tan olgan peshqadam bo'lib oldiki, uning mutaxassislari boshqaruv nazariyasi va amaliyotiga katta hissa qo'shdilar. Bu jabhadagi sa'y-harakatlar zoya ketmadi: AQSh iqtisodiyoti jadallik bilan barq urib gullash yo'liga kirdi. Xususan, ular tomonidan boshqaruvning zarurligi to'g'risidagi nazariya ishlab chiqildi:

Ishlab chiqarishni maxsus tayyorgarlik ko'rgan professionallar boshqarmogi lozim, deb hisoblovchi amerikaliklar ikkita boshqaruv akademiyasini tashkil etishdi. Bundan tashkari mamlakatda 10 ta biznes maktabi ishlab turibdi, boshqaruvga oid 200 dan ko'proq jurnal nashr etilmoqda. Boshqaruv xodimlari AQSh da eng yuqori maosh oladigan mutaxassislar jumlasiga kiradi.

Germaniya va AQSh tajribasi bekor qolib ketmaydi: ko'pgina mamlakatlar uni o'z amaliyoti uchun qabul qildilar. Hech kim kutmaganida 80 yillarda boshqaruv sohasida jahonda oldingi marraga chiqib olgan Yaponiya bu borada eng sobit qadam mamlakatlardan sanaladi. Boshqaruvning amalda butunlay yangi bo'lgan kontsepsiyasi aynan shu erda ishlab chiqildi, uning mohiyati shundaki, ishlab chiqarishning vujudga kelishidan tortib tovar ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayon uzluksiz sur'atda amalga oshiriladi. Bu tizim shu qadar samarali chiqdiki, xom ashyo manbalariga boy bo'lmagan Yaponiya o'z iqtisodiy taraqqiyotida nihoyatda ilgari lab ketdi.

Bugungi kunda boshqaruv butun dunyoda tobora keng yoyilmoqda. Bozor munosabatlari yo'liga qadam qo'ygan O'zbekiston ham undan mustasno emas. Bu sohada tezroq muvaffaqiyat qozonish uchun esa shu davrga qadar to'plangan, hozirgi paytda boshqaruvga doir haqiqiy fan bo'lib mujassamlashgan bilimlardan imkoni boricha foydalanish zarur. Bu fan, uning asoschilaridan biri bo'lgan amerikalik olim F.U.Teylor ta'biri bilan aytganda, «aniq belgilangan qonunlar, qoidalar va printsiplarga tayanadi». Ularni

o'zlashtirib olgach keyinchalik amaliyotda qo'llamasdan turib, ishlab chiqarish faoliyatida muvaffaqiyat qozonish deyarli mumkin emas.

Buning ustiga, xorijdagi iqtisodchi olimlar, boshqaruv faqat ishlab chiqarish muammolarigina emas, balki ijtimoiy muammolarni ham hal qilishga qodir, degan fikrdadirlar. Ular, barcha ijtimoiy muammolar, iqtisodiyotdagi barcha qiyinchiliklar, agar ular «amaliy jihatdan» bunyodkor boshqaruv nuqtai nazaridan qarab chiqiladigan bo'lsa, bartaraf qilinishi mumkin, deb hisoblaydilar. Qisqasi, amerikalik boshqaruv nazariyachilari hozirgi davrni ilmiy boshqaruvlari deb e'lon qildilar. Ularning fikricha aynan boshqaruv hozirgi biznesning asosiy orzu-niyatlarini ifodalaydi. U iqtisodiyotdagi o'zgarishlar inson hayotini yaxshilashning va ijtimoiy adolat o'rnatishning qudratli harakatlantiruvchi vositasiga aylanishi mumkinligiga ishonchni mustahkamlaydi.

Dadil aytish mumkinki, bugungi kunda boshqaruv jamiyatning barcha sohalarini va boshqaruvning barcha vazifalarini qamrab oladi. Xususan, moliya boshqaruvi, savdo boshqaruvi va hokazo boshqaruvlar mavjud. O'zbekistonda islohotlarning taqdiri va ularning natijalari ham ko'p jihatdan boshqaruvni rivojlantirishga bog'liq ekanligi ham shubhasizdir.

Respublikamizda mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solish, unumli ishlash uchun shart-sharoitlar yaratish masalalariga muhim ahamiyat berilayapti. Mamlakat konstitutsiyasi 37 moddasida shunday deyiladi: «Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, odilona sharoitlarda ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan ximoyalanish huquqiga egadir». Bu qoida mehnat haqidagi qonunchilikni takomillashtirish jarayonida yanada rivojlantirildi.

Boshqaruvining mehnatga daxldor jihatlari moliya sohasida bozor mexanizmlarini tartibga solish masalalariga bag'ishlangan qonunlar va me'yoriy hujjatlarda ifodalangan va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning raqobatbardoshligini oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bunda sondan sifatga o'tish qoidasi amal qiladi, ya'ni, katta biznesga sarmoyalarning ko'plab

oqib kelishi va pul operatsiyalari yarashadi. Bunday biznes moliyasini boshqarish uchun iqtisodiyot, huquq, ruxshunoslik, fanshunoslikdan chuqur bilimga ega professionallar, boshqacha aytganda, moliya va kadrlar bo'yicha menedjerlar kerak. Boshqaruv va uning mehnatga daxldor huquqiy jihatlaridan yaxshi xabardor menejer faoliyat ko'rsatish jarayonida tashkilotchilik ijodietidan tajriba orttiradi, ichdan his etishni shakllantiradi, unda bozor talablariga sezgirlik paydo bo'ladi, moliyaviy resurslar harakatini iqtisodiy boshqarish tizimida asosiy shaxsga aylanadi.

Kadrlar boshqaruviga anchagina ilmiy ishlar bagishlangan. Bu ishni davom ettirish, tadkikotlarni chuqurlashtirish, mehnat va u bilan bog'liq huquqiy munosabatlar sohasida tashkilotchilik ijodiyotini rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy asoslarni ishlab chiqish zaruriyatiga ehtiyoj esa, juda katta.

Bank tizimida yuzaga kelayotgan holatlar, bugungi kunda banklarni boshqaruv va yanada rivojlantirishni talab qilmoqda. Banklar sonini ko'payishi bu raqobatning kuchayishidir. Bu esa bank boshqaruvida yangi yangi vazifalar degani, shuning uchun bank tizimidagi boshqaruvini rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

Moliyaviy muassasalarni boshqaruv jarayonini amalga oshirib, moliyaviy, moddiy, tashkiliy, xuquqiy, ma'naviy psixologik shart-sharoitlarni yaratish, boshqaruv vazifalarini bevosita ijro etilishi bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Moliyaviy muassasalarni asosida, avvalambor, odamlar bilan ishlay olish mahorati yotadi, shu bois moliyaviy muassasalarni boshqaruvning muhim tarkibiy qismlaridan biri xodimlarni boshqarishdir. Sir emaski, inson resurslari sifati ularning bank oldida turgan maqsadlarini amalga oshirishga qo'shgan hissasi hamda bank faoliyatining sifatini ko'p jihatdan xodimlar bilan ishlashni samarali yo'lga qo'yilganiga bog'liq.

Ikki bosqichli bank tizimining shakllantirilishi, uning tarkibiy takomillashtirilishi, shuningdek, elektron to'lovlari tizimining yaratilishi

joylarda yangi tuzilmalarning: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Bosh hududiy boshqarmalari va Hisob-kassa markazlarining yaratilishiga va ularning faoliyatini yo'lga qo'yilishiga olib keldi. Bu esa bank muassasalarining yangi turi bo'lib, o'ziga xos funktsiyalarga ega. Bu funktsiyalar mamlakatimizda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Markaziy bank to'grisida"gi va "Banklar va bank faoliyati to'grisida"gi Qonunlarida belgilab berilgan.

Ushbu tuzilmalarning tashkil etilishi xodimlar bilan ishlashda bank tizimini yanada isloh etish hamda tijorat banklarini hududiy bo'linmalari oldiga qo'yiladigan vazifalarini amalga oshirishda mosligini ko'rsatmoqda. Bank uchun kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan va zamonaviy bank texnologiyalaridan foydalana oladigan, o'z ishini muntazam ravishda takomillashtirishga intiladigan mutaxassislar kerak. Bunday sharoitda yuqori ishchanlikka ega jamoani shakllantirish uchun xodimlar sonini rejalashtirish va istiqbolini belgilash, uning kasbiy darajasini oshirish va mutaxassislarni maqsadga muvofiq holda tanlash, barcha turdagi mukofotlashlarni hisobga olishning yagona tizimini yaratish lozim.

Aytish joizki, xodimlarni boshqarish mahalliy adabiyotlarimizda ancha keng baxs-munozaralarga sabab bo'lmoqda, chunki bank faoliyatini takomillashtirishning ushbu yo'nalishining dolzarbligi bu muammoning salbiy oqibatlarini boshidan kechirgan xorijiy banklar tajribasida ham o'z tasdigini topmoqda. Xodimlarni boshqarish muammosini belgilashga, uni hal qilish usullariga turli yondashuvlar mavjud. Ayrim olimlar o'z maqolalarida ichki firma boshqaruvi – bu eng yuqori samaradorlik va foydalilikka erishish maqsadida tashkilot resurslarini boshqarish tamoyillari, usullari va vositalari yigindisi deb ta'rif berar ekan, xodimlarning resurs sifatidagi alohida fazilatlarini ko'rsatib beradi. Umuman olganda xodimlarni bir jinsli substantsiya deb qarash yaramaydi, har bir xodim o'ziga xos qadriyatlarga va motivlarga ega.

Xodimlarni boshqarish uzluksiz jarayon bo'lib, odamlarning maksimal darajada ishchanligini oshirish va tegishlicha yuksak yakuniy natijalarga

erishish maqsadida ularni motivatsiyalashni maqsadli o'zgartirishga qaratilgandir. Xodimlar bilan ishlashning yakuniy maqsadi – tashkilot maqsadlarini xodimning manfaatlariga yuqori darajada yaqinlashtirish kerak. Shularga asoslanib xodimlarni boshqarishning kontseptual modelini taklif qilish mumkin.

Boshqa bir guruh olimlarning fikricha, xodimlar iqtisodiyoti maqsadi individuallashtirishga yo'nalish olish barobarida individni faqat umumiy, jamoaviy vazifalarni hal qilishga jalb etilishi oqibatida ishga solinmay kelingan individual salohiyatini namoyon qilish natijasida tashkilot samaradorligini oshirishdan iborat. Shunga ko'ra, boshqaruvning muammosi ko'rsatilayotgan xizmatlarni xodimlarning haqiqiy talablariga qaratish yo'li bilan qo'shimcha xarajatlarsiz ular mehnatini ragbatlantirish samaradorligini oshirish bilan bog'liq. Bunday siyosat natijasida xodimlarning o'z ishidan mamnunligi va o'z majburiyatlarini vijdonan bajarishga tayyorligi asosida individual ishchanlikning ortishini kutish mumkin.

Xodimlarni boshqarishga bog'liq ishlab chiqarish xo'jalik muammolari ham iqtisodiy shart-sharoitlarga, ham hulq-atvor xususiyatlariga tayanishi lozim. Bank boshqaruvida xodimlarni boshqarish haqida gap ketganda shuni aytib o'tish kerakki, bu jihatdan xodimlarni bank tizimida boshqarish boshqa faoliyat turlaridan birmuncha farq qiladi, bu esa banklarning boshqa tashkiliy institutlardan farq qilishi bilan asoslanadi.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy muassasalarda xodimlar boshqaruvi deganda uchta strategik vazifalarni amalga oshirish zarur.

Moliyaviy muassasalning mehnat resurslariga bo'lgan ehtyojlarini tezkor va to'liq qondirish uchun zarur ixtisoslashuvni va malaka darajasini ta'minlash. xodimlarning o'zlariga yuklangan funktsiyalarni eng yuqori darajada samarali bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratish.

Moliyaviy muassasalarda boshqaruvini boshqa yo'nalishlari va elementlari bilan kerakli darajadagi o'zaro ta'sirini ta'minlashga qaratilgan xodimlarni boshqarishning kompleks tizimini yaratish.

Shunga ko'ra, xodimlarni boshqarish tizimi doim uchta o'zaro ta'sir qiluvchi bloklardan tashkil topadi. Bular: boshqaruv strategiyasi, boshqariluvchi kichik tizimlar, tizimning umumiy faoliyatini ta'minlovchi blok.

Moliyaviy muassasalarda personal boshqaruvi strategiyasi deganda xodimlarni boshqarishning umumiy vazifalarini amalga oshirishda kontseptual yondashuvlarning yigindisidir. Boshqariladigan kichik tizimlar deganda - kompleks boshqaruv tizimining aniq ta'riflangan muayyan vazifasini amalga oshirishga qaratilgan elementlarni tushunish lozim. Moliyaviy muassasalarda boshqaruvni ta'minlash deganda uning tarkibini muayyan jarayonga qaratilmagan, ammo barcha operatsion kichik tizimlarning faoliyatini ta'minlovchi mustaqil elementi tushuniladi.

Moliyaviy muassasalarda personalni boshqarish kontseptsiyasi, xodimlarni boshqarish kichik tizimi u yoki bu bank doirasida javob berishi lozim bo'lgan talablarga mos holda ishlab chiqilishi kerak.

Moliyaviy muassasalarda personalni boshqarish kichik tizimi quyidagilarga qaratilgan:

- har bir ish o'rni, bo'lim, boshqarma ishining hajmini belgilash asosida kadrlar tarkibini maqbullashtirish;

- shtat lavozimlarini mehnat jarayonining murakkabligi va o'ziga xosligidan kelib chiqib funktsional majburiyatlarning maqbul to'plami bilan ta'minlash;

- malakali kadrlarni bankda belgilangan lavozimlar tarkibiga mos holda va har bir mutaxassisning imkoniyatlarini hisobga olgan holda, shuningdek ularni moslashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratgan holda sifatli tanlash, ajratish va joylashtirish;

- xodimning salohiyatini va imkoniyatlarini aniqlash asosida, uning xizmatdagi o'sishini rejalashtirish asosida kadrlar tarkibidan oqilona foydalanishni tashkil qilish;


- xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, malakasini oshirish;

- har bir xodimning umumiy ishga qo'shgan hissasiga mos holda mehnatga haq to'lash, mehnatni motivatsiyalashning boshqa turlarini takomillashtirish.

Ushbu kontseptsiya quyidagi tamoyillarni o'z ichiga olishi mumkin deb o'ylaymiz:

1. Har bir bo'limda xodimlar sonini maqbullashtirish.
2. Malakasi va individual imkoniyatlari bajariladigan ishga mos keladigan xodimlarni tanlash.
3. Mehnatni maksimal ravishda avtomatlashtirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish.
4. Funktsiyalarning takrorlanishini istisno etish.
5. Ish vaqtini tejash.
6. Zarur ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish.

Me'yoriy-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqishda kadrlar zahirasini, rahbarlikka nomzodlarni shakllantirish, mutaxassislarni asosiy lavozimlarga tanlov asosida taklif qilish, o'qishga yuborish, mutaxassislarning kasbiy o'sishi, ular mehnatini motivatsiyalash va baholashga bog'liq masalalarni hal etishga amaliy yondashuvlarni shakllantirish kerak. Bular xodimlar bilan ishlarni tizimlashtirishga, bo'linmalarni bank mutaxassislariga qo'yiladigan zamonaviy talablarga javob beradigan xodimlar bilan ta'minlashga, ish o'rinlarining jihozlanganligini va mehnat madaniyatini oshirishga imkon beradi.



1-rasm. Moliyaviy muassasalarda personalini boshqarish tizimi

Shunday qilib, ish o'rnini modelidan kelib chiqib, ish o'rnida nomzodga qo'yiladigan talablarning to'liq ro'yxati ishlab chiqiladi. Ro'yxatga quyidagi elementlar kiradi:

- hisobga olish ma'lumotlari (yoshi, jinsi va h.k., ya'ni shaxsiy varaqada, avtobiografiyada, tavsiyalarda, mehnat daftarchasida va boshqalarda aks etgan ma'lumotlar);

- malaka darajasi (ma'lumoti, mutaxassisligi, diplom olgandan keyingi qaerda o'qiganligi va malakasini oshirganligi);

- bank ishi, iqtisod, moliya, boshqaruv, psixologiya, dasturlar, xorijiy til va hokazolar bo'yicha kasbiy bilimlari;

- kasbiy ko'nikmalari (odamlar bilan ishlash, nizomlar, metodikalar, qo'llanmalar, dasturlar va rejalarni ishlab chiqish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ish yuritish, zamonaviy dasturiy mahsulot bilan ishlash va h.k.);

- ish tajribasi (mutaxassisligi bo'yicha, moliya-kredit, bank tizimidagi ish staji, jamoat ishlaridagi ishtiroki);

- shaxsiy-psixologik fazilatlari (halollik, mehnatsevarlik, kirishimlilik, intizomlilik, aqliy salohiyati, ortiqcha ishlashga va stressga chidamliligi va h.k.);

- mehnat sharoitlari (ish xonasi, telefon, transport, kompyuter texnikasi, o'quv-metodik markaz, kutubxona);

- mehnatga haq to'lash va ijtimoiy imtiyozlar (lavozim maoshi, ustamalar, mukofotlar, oylik kompensatsiya to'lovlari, mehnat ta'tiliga, yubiley sanalariga, yaqinlarining o'limi hollarida, tabiiy ofatlarda va baxtsiz xodisalarda moddiy yordam, sugurtalash, imtiyozli yo'llanmalar, qo'shimcha ta'til berish, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish majmualaridan foydalanish, qo'shimcha pensiya tayinlash).

Rahbar ish o'rnini tavsiflashda boshqaruv vazifalarining boshqaruv ta'siri doirasi, qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlik, bajariladigan ishlarning bir xilligi, rejalashtirishning ko'lamlari, muvofiqlashtirish darajasi kabi omillari ham kiritiladi. Bu, o'z navbatida, rahbarlik lavozimiga nomzodning boshqaruv fazilatlari yigindisi, ya'ni: istiqbollarni ko'ra bilish, rejalashtirish, rahbarlikni amalga oshirish ishtiyoqi, shaxsiy fazilatlari ichida etakchilik xususiyatining borligi, odamlar ishini tashkil qila olishi, boshqalarning ishini taqsimlash va nazorat qilish, ishga o'rgatish kabi uning kasbiy darajasiga qo'yiladigan talablar ro'yxatini shakllantiradi.

Har bir lavozim toifasiga unga mos keladigan murakkablik darajasidagi mehnat funktsiyalarining bajarilishi belgilangan.

Amaliyotda texnologik tuzilmalarning har bir toifa mutaxassislarining mansab majburiyatlari bajariladigan ishlarning aqliy jihatdan murakkabligidan kelib chiqib shakllantiriladi va tavsiflanadi.

Bank doirasidagi boshqaruv – bu eng katta samaradorlik va foyda olish maqsadida bank resurslarini boshqarishning zamonaviy qoidalari, usullari va vositalari yigindisidir. Bank doirasidagi boshqaruv shunday ta'riflanganda personalning resurs sifatidagi alohida tavsiflari ham ajratib ko'rsatilmog'i kerakdir.

Bank sohasidagi boshqaruv quyidagilarni o'z ichiga oladi: bosh boshqaruv, operatsion ishlar boshqaruvi va personal boshqaruvi.

Bosh menejer bilan barcha menejerlar ular tarkibiy bo'linmalar boshligi ekani yoki boshliq emasligidan qat'i nazar shugullanadilar. Ular muayyan missiyalar hamda strategiyalar shakllantirilishi, siyosiy ishlab chiqilishi va vazifalar qo'yilishi uchun, xullas rejalashtirish va tashkil etish, bankni nazorat qilish va boshqarish bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishlar uchun javobgardir.

Operatsion boshqaruv yoki ishlab chiqarish xo'jalik faoliyati boshqaruvi bank umumiy strategiyasini amalga oshiruvchi maqsad hamda vazifalar qo'yilishi, tuzilma shakllantirilishini, majburiyatlar taqsimlanishini; mehnat nizolarini tartibga solinishini; rejalarning bajarilishini, xodimlarning sifatli ishlarini ragbatlantirilishini, bo'linma doirasidagi ishlab chiqarish jarayoni muvofiqlashtirib turilishini, zarur kommunikatsiyalar va aloqalar yo'lga qo'yilishini ta'minlaydi.

Bank doirasidagi boshqaruvning har uch turi bir ob'ekt – insonga taalluqlidir. Zero bank rivoji uning kundalik mehnat faoliyatiga qo'shilishi darajasiga bog'liqdir.

Amaliy nuqtai nazardan personal bankning eng muhim resursi bo'lib, uning imkoniyatlarini samarali amalga oshirish xodimlarning muayyan guruhi yoki ayrim xodim tomonidan hal etiladigan aniq ishlab chiqarish vazifalarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq ravishda ijtimoiy echimlarni talab qiladi.

Yangi kontseptsiya avvalo xodimlar faoliyatining iqtisodiy mezonlarini hisobga olgan holda, xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish, boshqariladigan xulq-atvordan maqsadga muvofiq foydalanish, alohida shaxsning ham, turli professional va ijtimoiy guruhlarning ham imkoniyat va qobiliyatlarini mumkin qadar yaxshiroq ochish uchun zarur investitsiyalarda aks ettirish lozim. Uni qurishda personalni rivojlantirishga qilinadigan pul xarajatlari bilan foyda ko'rinishidagi amaliy natijalar nisbati hisobga olinishi darkor. Bunday yondashuv biznesning uzoq muddatli strategiyasiga asoslanadi.

Bir tomondan, u o'zi boshchilik qilayotgan bo'linma xodimlariga nisbatan liniya menejeri hisoblanadi, ikkinchi tomondan bankning boshqa tuzilmalari bilan funktsional munosabatlarda bo'ladi. Funktsional boshqaruv esa faqat maslahat va tavsiyalar berishni ko'zda tutadi. Personal bilan ishlash xizmatining rahbari boshqa bo'linmalarda o'zgartirishlarni bevosita o'tkaza olmaydi, lekin shunday o'zgartirish yunalishi to'grisida tavsiyalar berish huquqiga ega.

Hozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy vokaligi uchun bunday muammo, ayniqsa, dolzarbdir. Zero, har qanday tashkilot, birinchi galda moliya muassasasi rahbaridan zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun ijodiy yondoshish talab etiladi. U yangiliklardan foydalanishi, kadrlar boshqaruvidagi ilg'or yutuqlarni joriy etishi, mehnatga daxldor huquqiy tartibotni takomillashtirishga va istiqbolda mehnat huquqining ancha samarali me'yorlarini yaratishga ko'maklashishi lozim.

Ishga ijodiy yondosha olmaydigan rahbarlar bozor sharoitida og'ir ahvolga tushib qoladilar. Bir kolipdagi tashkiliy echimlar endilikda biz hohlagan natijalarni bermaydi. Moliya muassasalarini boshqarishga novatorlarcha yondoshuvlarni rag'batlantirishning yangi vositalarini izlash masalasi pishib etildi. Ayni paytda boshqaruvchilik faoliyatining o'ziga xosligi uning huquqiy jihatdan tartibga solinish murakkabligidan ham kelib chiqqandir.

Bizningcha, boshqaruvning ijodiy tusdaligi meyorlashtirilmagan ish kunini, demakki, shunday tusdagi ish uchun sarflangan mehnat o'rnini qoplashning huquqiy masalalarini hal etishni talab etadi. Gap shundaki, tashkilotchilik ijodiyotining butun mazmunmohiyati rahbarning mehnat tartibotiga rioya etishida emas, u qabul qiladigan qarorlarning samaradorligida, ularni ro'yobga chiqarishga va eng yuqori ko'rsatkichlarga erishishga qobilligidadir.

Jahon bank tizimida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, MDX mamlakatlari bank tizimiga ham tobora ko'proq ta'sir ko'rsatayotir. Birinchidan, bu o'zgarishlar to'lovlarning yangi integratsiya vositalarini yuqori sur'atlar bilan

shakllantiradigan bank operatsiyalarini kompyuterlashtirishning texnologik inqilobi bilan bog'liq. Bu jarayonlar talaygina moliyaviy harajatlar talab qiladi, bank ishi qimmatlashadi, biroq uning samaradorligi va uning tezkorligi oshadi, bu esa harajatlar o'lishini qoplaydi.

Ikkinchidan, bank ishida o'sib borayotgan raqobat banklarning qo'shib ketishiga olib keladi, bu esa sarmoyalar bozorida va iqtisodning investitsiyalar sohasida yangi sharoitlarni vujudga keltiradi. O'zbekistonning bank tizimi unga kam quvvatli talay banklar kirganligi sababli, yaqin vaqt ichida bu ta'moyilning ta'sirini boshdan kechiradi. Bu hodisaga respublika bank xizmati bozorida anchagina raqobatbardosh va samarali bo'lgan chet el banklarining paydo bo'lishi ham yordam beradi.

Uchinchidan, bu an'anaviy bank xizmatlari bozoriga tobora shaxdam odimlar bilan kirib kelayotgan bankdan tashqari tuzilmalar bilan raqobatning kuchayishi. Jumladan, aholiga kredit kartochkalari bilan xizmat ko'rsatish sohasida turli xildagi tijorat tuzilmalari faoliyat ko'rsata boshlaydilar.

Boshqaruv tashkil etish va boshqarishning tizimini to'g'riroq olib borishi haqidagi ilmiy bilimdir. Boshqaruv tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati turlicha tushuniladi. Qisqa ma'noda boshqaruv so'zi jamoani tashkil qilish va boshqarish bilan bog'liq bo'lsa, keng ma'noda boshqaruv bank faoliyatini va uning ishchilarini shakllantirishni boshqarish tushuniladi.

Boshqaruv asosini inson omili, o'z ishini biluvchi, shaxsiy hamda jamoa mehnat faoliyatini tashkil eta oluvchi hamda samarali boshqaruvchi shaxs tashkil etadi. Bu borada boshqaruvchi kasbiy bilimga va shaxsiy sifatlarga: yuqori bilimli, o'ylash qobiliyati chuqur va zexnli, xavfni boshqara oladigan hamda rejalashtirgan ishlarni qo'rqmasdan amalga oshira oladigan shu bilan birga jamoasi orasida etakchilik qila oladigan shaxs bo'lishi shartdir.

Boshqaruvning asosiy maqsadi boshqarishning ratsional usuli orqali foyda olishdir. Lekin respublikamizning hozirgi iqtisodiy sharoitida bank boshqaruvining asosiy maqsadi faqatgina foyda olish emas, balki jamiyatning ijtimoiy iste'mol talablarini qondirishdan ham iboratdir. Oxirgi yillarda bank

boshqaruvining maqsadlariga jamoaning ijtimoiy muammolarini ham hal qilishdan iborat bo'lgan masalalar turibdi. Busiz inson o'z potentsialini namoyish eta olmaydi va mehnat qila olmaydi.

1.2. Moliyaviy muassasalari boshqaruvining mohiyati va ahamiyati

Bugungi kunda tijorat banki mijozlarga 200ga yaqin turli bank xizmatlarini taklif qilishga qodirdir. Operatsiyalarning keng diversifikatsiyasi banklarga o'z mijozlarini saqlab qolish bilan birga ularning sonini ko'paytirishga ham imkon bermoqda. Zamonaviy banklarning faoliyati doimiy ravishda o'zgarib bormoqda. Bunday sharoitda bank marketingining muhim aspekti konkret bank mahsuloti va xizmatiga ta'rif berishdir.

Bank mahsuloti – bu konkret bank hujjati (yoki guvohnomasi) bo'lib, bank tomonidan mijozga xizmat ko'rsatish va operatsiyani o'tkazish uchun tuziladi. Bu veksel, chek, bank foizi, depozit, istagan sertifikat (investitsion) va h.k. bo'lishi mumkin. Bank xizmati – bu mijozga xizmat ko'rsatish bo'yicha amalga oshiriladigan bank operatsiyalaridir. Bank xizmatining o'xshashlik tomoni shundaki, ular mijoz ehtiyojini qondirishga qaratilgan va foyda olish qobiliyatiga ega. Masalan, depozitlar bo'yicha to'lanadigan bank foizi bank bo'lib, uni doimiy ravishda to'lash esa bank xizmati hisoblanadi. Ikkala holda ham ular mijoz ehtiyojini qondirib, daromad olishga xizmat qilmoqdalar.

1. Banklarning tashkiliy tuzilishi
2. Bank tashkiliy tuzilishi variantlari
3. Banklarni tashkil qilish shartlari

Tijorat banki (xususiylashtirilgan yoki yaqinda tashkil etilgan) o'zining asosiy vazifalarini rivojlanayotgan muhitning beqarorligini hisobga olgan holda belgilashi kerak. Bunda ustivor yo'nalishlar qilib, quyidagilar olinadi:

1. Bankning mijozlar bilan mavjud bo'lgan aloqalari va bu mijozlarga xizmat ko'rsatish tajribasi.
2. Bevosita geografik muhitning iqtisodiy tuzilmasi.

3. Mavjud bank raqobati (raqobatli muhitda xizmat ko'rsatilgan sohalar va tarmoqlarni belgilash).

4. Bank xususiy sarmoyasi, depozitlarining hajmi va tuzilishi.

5. Iqtisodiyotning turli sohalrida yuzaga kelishi muhim bo'lgan daromadlilik.

6. Bank xodimlarining boshqaruvchilik va texnik omilkorligi.

Bank geografik bozorlari ob'ektlarini belgilovchi omillar:

1. Bevosita tijorat, moliya va sanoat muhitini miqyosi va tuzilishi.

2. Mintaqaviy va milliy joylashishidan kelib chiqib boshqarish maqsadlari (bozoni geografik jihatdan bo'lib olish maqsadlari).

3. Geografik printsiplarga rioya qilishga extiyoj va hohish hamda ehtimoldagi mijozlarni ko'paytirishga intilish.

4. Xodimlarning omilkorligi bilan bog'liq cheklovlar.

Har qanday menejmentning tadbirkorlik xususiyati va mulkchilik turidan qat'iy nazar eng muhim ikki vazifasi mavjud:

a) mukammal va samarador tashkiliy tuzilmani tashkil etish va undan foydalanish;

b) qaror qabul qilish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ichki nazorat tizimini yaratish.

Yangi iqtisodiy va tadbirkorlik muhitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun menejment mehnat resurslarini boshqarish bo'yicha departament tashkil etishga munosib e'tibor berishi zarur.

Departament muntazam ravishda ahvol tahlilini taqdim etishi hamda xodimlar ahvolini va ishlar ijrosini samaradorligini qayd etib borishi, ragbatlantirishning moliyaviy va nomoliyaviy tizimini yaratish hamda xodimlarning xizmat lavozimlarida ko'tarilishiga yordam berishi zarur.

Shu ma'noda o'rta bo'g'in xodimlarining texnik ko'nikmalarini takomillashtirish bo'yicha majburiy tarzda muntazam kurslarni, menejmentning o'rta va yuqori darajasi uchun seminarlar va konferentsiyalarni o'z ichiga oluvchi dasturlarni rejalashtirish bankning samarali faoliyati uchun zarur

hisoblanadi. Yirik banklarda bu departamentning ahamiyatini hisobga olgan holda uning menejeri bank boshqaruvchilari kengashining to'la huquqli a'zosi hisoblanadi.

Har qanday tadbirkorlikda bo'lgani kabi tijorat banklari operatsiyalarining uzoq muddatli samaradorligi va foydaliligi kelgusi faoliyatni rasmiy rejalashtirishga doim va davomiy e'tibor berishni talab etadi. Belgilangan rejalarni vaqti-vaqti bilan muntazam sharxlash hamda o'zgartirish asosiy elementlardan hisoblandi.

Bank rahbariyati yuqorida aytilganlarga qo'shimcha sifatida foydalilikni oshirishni hamda to'lov balansini yaxshilashni, sarmoya va mijozlarni tanlash mosligini aniq maqsad qilib olishi zarur.

Bu maqsadlar tavakkalchilikni ehtimol moyilligini hisobga olishi lozim.

Maqsadlarni belgilash, ularni amalga oshirishning borishini doimiy baholash menejmentning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Rahbarlar bank ishining tashkil etish holati haqida yaxshi xabardor bo'lganida tavakkalchilik darajasi uning barcha shakllarida eng past darajaga etadi.

Bankning tashkiliy darajasini barpo etish quyidagicha bo'lishi kerak:

a) zamonaviy bo'lishi;

b) bank faoliyatini barcha sohalarini aks ettirishi;

c) xodimlarga bank pog'onalaridan o'z urnini aniqlashda yordam berish;

d) asosiy nazorat vazifalarini amalga oshirishda o'zaro bog'liqlik va barcha bo'linmalarning hisobdorligini belgilashda yordam berish.


Bankning ishi tashkil etilishini ko'rsatuvchi tashkiliy diagrammalar har bir xodim o'zini bank tuzilmasining ajralmas qismi sifatida xis etishi bank pog'onalaridagi o'z o'rnini anglashi uchun xodimlar o'rtasida tarqatilishi lozim.

Diagrammalar bank faoliyatini tahlil qilishda ham keng qo'llaniladi. G'arb mamlaktlarida, masalan, bank taftishchilari birinchi navbatda tashkiliy diagrammasini nusxasini talab qiladilar.

Diagramma tuzishdan maqsad bankning tashkiliy va pog`ona tuzilmasini tasvirlash hisoblanadi. Bunda tashkil etish falsafasi va maqsadi o`z aksini topadi.

Banklar tashkiliy tuzilishiga ko`ra piramida shaklida, geografik shaklda va funktsional shaklda tuzilishi mumkin.

- harbiy va sobiq milliy hamdo`stlik malakatlarining aksariyat yangi banklari boshqaruvining odatdagi tuzilmasi ikkita alohida kengashidan iborat;
- aktsiyadorlarning vakili bo`lgan hamda bankning strategiyasi va siyosatini yaxshilash uchun ma'sul supervayzerlar kengashi hamda rais (prezident) boshchiligidagi yuqori bo`g`im menejerlardan iborat va bank faoliyatini kundalik boshqaruv uchun javobgar boshqaruvchilar kengashi.



2-rasm. Bankning piramida shaklida tuzilishi.

Kredit tavakkalchiligini eng past darajaga etkazish uchun kredit siyosatini rejalashtirishni qarz berish bo`yicha jroyiy faoliyatdan qat'iy tarzda ajratib olish zarur.

Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablaridan biri ham chet el banklarining kreditlash jarayonida yo`l qo`ygan xatoliklaridir.

«Avvalo, jahon moliyaviy inqirozi haqida. Bu inqiroz Amerika qo'shma shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning etakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bo'larning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi»².

Kredit siyosati departamenti bankda eng muhim o'rinlardan birini egallaydi, uning uchun uning rahbari boshqaruvchilar kengashining a'zosi bo'lishi lozim.

Sobiq milliy hamdo'stlikning ko'pgina mamlakatlarida hisobga olish shu qadar muhim ahamiyatga egaki, ko'pincha bosh buxgalterlar boshqaruvchilar kengashining a'zosi hisoblanadi. Tavakkalchilikni boshqarish hamda davlat xazinasi va rejalashtirish kabi sohalarda qaror qabul qilish jarayonining o'zgarishi bilan o'z ichiga buxgalterlik hisobini oluvchi «moliyaviy menejment» uchun ma'sul bo'lgan maxsus bo'limlar tashkil etila boshladi.

Foydalilik, o'sish va raqobat masalalari bilan bir qatorda yuqori e'tibor berish zarur bo'lgan bank xodimlari bank faoliyatining muhim tarkibiy kimslaridan hisoblanadi. Bankning yakuniy muvaffaqiyati xodimlarning fazilatlari, ko'nikmalari va shakllanishiga bog'liqligi sababli mehnat resurslari departamentining menejeri boshqaruvchilar kengashining a'zosi bo'lishi lozim.

Qaror qabul qilish jarayonida tavakkalchilik omili ko'lami, xato va yanglishishlar bo'lishi ehtimoli bevosita kommunikatsiya samaradorligi bilan bog'liqdir.

Tavakkalchilikni boshqarish har departament va bo'lim faoliyati bo'yicha maxsus qo'llanmalar yaratishni o'z ichiga oladi.

² I.A.Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi.O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.» O'zbekiston .T.2009.y.

Operatsiyalarga doir qo`llanma tarkibiy birliklar maqsadlari va vazfalari, xodimlarning mas'uliyati va vakolatlarini, ularning hisobdorlik zanjirini va qaror qabul qilish jarayonini batafsil ifodalaydi.

Bunday qo`llanmalarni boshqaruvchilar kengashi a'zolari rahbarligi ostida departament boshqaruvchilari ishlab chiqishi mumkin. Ular vaqti-vaqti bilan yangilanib turishi va zarur bo`lsa departamentlar yoki bo`limlar o`rtasida tarkatilish.

Qo`llanma bank ichki nazorati vositasi hisoblanadi, uning vositasida va rahbariyat bank operatsiyalarini nazorat qiladi hamda tadbirlar va siyosat tavsifini ta'minlaydi. Samarali ichki nazorat supervayzerlar kengashi va boshqaruvchilar kengashi tegishli siyosat haqida qaror qabul qilgan paytdan boshlanadi. U bu siyosat va tegishli tadbirlarining ijrosi ustidan nazorat qilishni ko`zda tutadi.


Ichki auditor ichki nazorat qismi sifatida amalga oshirilayotgan faoliyatni baholash tadbirini o`tkazish tarkibiga, xususan, uning «bir xilligi, samaradorligi va unumdorligi» nuqtai nazaridan kiritiladi. Bunda auditorlar va yuqori turuvchi menejerlar, shuningdek, boshqa xodimlar o`rtasidagi samarali bank ichki kommunikatsiyalari samarador tadbirlar va qat'iy ifodalangan siyosatning etarlicha mos emasligida tavakkalchilikni eng past darajaga etkazish uchun zarurdir. Samarali nazorat ichki nazoratchilar o`rtasida bank tarkibidagi puxta kommunikatsiyalar bo`lishini talab etadi.

Boshqaruvchilar kengashining huquq va majburiyatlarini belgilash supervayzerlar vakolati hisoblanadi. Shu bilan birga, yuqori va o`rta bo`g`in menejerlarining huquq va majburiyatlarini boshqaruvchilar kengashi qo`llanma va ko`rsatmalar vositasida belgilaydilar. Noto`g`ri talqin etilishining oldini olish uchun bu qo`llanma va ko`rsatmalar tushunarli va batafsil aniqlikda bo`lishi zarur.

Huquq va majburiyatlarining o`zaro nisbati qanday aniqlanadi? Har qanday hokimiyat mas'uliyatni talab etadi. Masalan, agar bo`lim rahbari mazkur

bo`limga xodimlar qabul qilish vakolatiga ega bo`lsa, u ishning sifati uchun ham mas'ul bo`ladi.

Tijorat banklari depozitlarning aksiyadorlik sarmoyasiga 12:1 va undan yuqori nisbat sharoitida faoliyat ko`rsatadi. Avval boshdan jalb etilgan resurslar bilan faoliyat ko`rsatib kelgan banklar rahbarlari bu ish xususiy resurslardan foydalanishdagiga karaganda boshqacha tavakkalchiliklar bilan bog`liqligini hisobga



3-rasm. Bank xoldingi.

olishlari zarur. Qarz berishda bank tavakkalchilikni o`z zimmasiga olishi ahamiyatli bir holat. Tavakkalchilikni zimmasiga olish o`ziga xos faoliyatni tanlashdan ko`rilgan yutuq bilan o`zini oqlaydi. Rahbarlar eng maqbul qaror qabul qilish maqsadida tavakkalchilikning xususiyatiga baho berish va sifatli tahlil qilish layoqatiga ega bo`lishi zarur. Hozirgi fanda tavakkalchilikni miqdor va sifat jihatidan aniqlash statistikada, ayniqsa, ehtimollik nazariyasida etarli darajada ishlab chiqilgan. Moliya va bank sohasida bu nazariyadan strategik rejalashtirish va taxminlashda foydalaniladi.

Taraqqiy etgan mamlkatalarning aksariyat qismida banklarning ko`pchiligi aksionerlik jamiyati sifatida tashkil etiladi. Aksionerlik jamiyati faqatgina

bank sohasida emas, balki tadbirkorlikning boshqa soxalarida ham mavjud. qishloq xo`jaligida esa yakka tartibdagi tadbirkorlik keng rivojlangan. Aksionerlik jamiyatning o`ziga xos xususiyatlari va boshqa tadbirkorlik shakllarida farqi qo`yidagicha izohlanadi.

- yakka tartibdagi tadbirkorlik va boshqa o`rtoqliklarni tashkil etishda qandaydir rasmiyatchiliklar amalga oshirilishi talab etilmaydi. Ta'sischilar operatsiyalarni hech qanday sanktsiyalarsiz amalga oshirishi mumkin. Kapitallarni o`zlari yoki kimlardandir olishi mumkin. Aksioner jamiyatlarida esa mahalliy xokimiyat organlaridan ruxsat olishlari shart. Kompaniyaning tashkil etilishi to`g`risida ruxsatnomani taqdim etishlari shart.

-mulkchilik bo`yicha yakka tartibdagi tadbirkor barcha javobgarlikni o`ziga oladi va faoliyati bo`yicha majburiyatlari uchun javob beradi. Aksioner jamiyatda mulkchilik huquqi aktsiyalar bo`yicha taqsimlangan.

1.3. Moliyaviy muassasalarning o`ziga xos xususiyatlari

O`zbekiston bozor iqtisodiyotiga o`tar ekan, ushbu tizimning samarali ishlashi va zarur infratuzilmaning shakllanishini kredit munosabatlarining rivojlanishisiz tasavvur etib bo`lmaydi. Zero, Prezidentimiz I.A. Karimov ta`kidalganlaridek, "Rivojlangan va kengayish bosqichida har bir korxonaga uchun moliyalashtirish mablag`lari suv va havodek zarur. Real sektorni moliyalashtirish manbalari o`rtasida banklarning, xususan, bank kreditlarining ahamiyati beqiyosdir"³.

Kredit ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishini rag`batlantiradi, qayta ishlab chiqarishni ilmiy-texnikaviy asosda kengaytirish uchun kapital mablag`lar manbalarini shakllantirishni tezlashtiradi.

Kredit ko`magisiz mamlakat ichida va tashqarisida xo`jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatini samarali, tez va tsivilizatsiyalashgan darajada tashkil etib bo`lmaydi.

³ Karimov I.A. bizning bosh maqsadimiz –jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T. :O`zbekiston, 2005, 85-b.

So`nggi vaqtlarda “tijorat banklari kredit portfeli” tushunchasi ko`pchilik uchun bank tizimi faoliyati bilan bog`liq munosabatlarni anglatadigan asosiy tushunchalardan biriga aylanib qoldi. Uning tez orada ommalashib ketishiga sabab shundaki, “kredit portfeli” tijorat banklarining kredit bilan bog`liq butun faoliyatida hal qiluvchi o`rin tutadi. “Kredit portfeli” tijorat banklarining kredit berish imkoniyatlarini ko`rsatadigan omillardandir.

Kredit portfelining to`g`ri tashkil etilishi tijorat banklarining samarali faoliyat yuritishi uchun asos hisoblanadi. Xususan, kredit berish va uni belgilangan muddatda qaytarib olish, u bilan bog`liq xatarlar, ssudalar, muddati o`tgan yoki uzaytirilgan kreditlar bo`yicha hisob-kitob operatsiyalari, ssudalar bo`yicha zararlarni qoplash, zahira miqdori, banklararo kredit va markazlashtirilgan kreditlar bo`yicha operatsiyalar shular sirasiga kiradi.

Demak, kredit portfeli – bu turli xil risklarga asoslangan muayyan mezonlarga qarab turkumlangan kreditlar miqyosidagi bank talablarining yig`indisidir.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarining kredit siyosatiga, ularning kredit portfeli va uning sifatiga, undan foydalanish darajasiga katta e'tibor beriladi. Chunki kredit portfelining to`g`ri tashkil qilinishi banklarning samarali faoliyat yuritayotganligidan dalolat beradi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh etish borasidagi chora-tadbirlar to`g`risida»gi Farmonida bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish, tijorat banklarining mustaqilligini oshirish, banklar hamda ularning mijozlari o`rtasidagi o`zaro manfaatli sheriklik munosabatlarini shakllantirish, bank aktivlari, shu jumladan, kredit portfelini shakllantirish bilan bog`liq xatarlarni boshqarish kabi vazifalarni tijorat banki rahbariyati zimmasiga yuklash va uning vakolatiga kiritish ta'kidlab o`tilgan. Bundan ko`rinib turibdiki, banklar kredit portfelining samarali boshqarilishi, avvalambor bank rahbariyatiga bog`liqdir.

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo`lishi, bank faoliyatida yuzaga keluvchi xatarlarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Bular:

- kredit xatari darajasiga ta'sir ko`rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni baholash;
- ssudalarni xatar guruhlari bo`yicha tasniflash;
- kredit portfelini kredit xatari, mijozlar tarkibi va ssudalar tarkibi bo`yicha ma'qullashtirish;
- kredit xatarini prognoz qilish maqsadida qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini va uning moliyaviy ahvoli o`zgarishi ehtimolini aniqlash;
- muammoli ssudalarni oldindan aniqlash;
- yaratilayotgan zahiralarni etarliligini baholash va uni o`z vaqtida ta'minlab borish;
- kredit qo`yilmalarini diversifikatsiya qilish, ularning likvidligini va daromadligini ta'minlash;
- bankning kredit siyosatini ishlab chiqish va uni kredit portfelining sifatli tahliliga asoslangan holda yuritishdan iborat.

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishda yuqoridagilarga amal qilish, bankning kredit faoliyati samaradorligini oshiradi, o`z navbatida, bankning ko`radigan foydasi ham oshadi.

Bank aktiv operatsiyalari ichida kredit asosiy o`rinni egallab, bank daromadining katta qismi ham aynan shu kredit operatsiyalari orqali keladi. SHu sababli bank kredit portfelining qanday shakllanishi bank faoliyatiga bevosita ta'sir ko`rsatadi. Bank yaxshi kredit portfelini shakllantirish niyatida ekan, kreditlash jarayonini tug`ri tashkil qilishi zarur bo`ladi.

Ma'lumki, bank kredit portfelining monitoringini o`tkazish orqali kredit portfelini holatiga baho berish mumkin.

Bank kredit portfeli monitoringi - bu kredit resurslarini ratsional joylashtirish va undan samarali foydalanish hamda berilgan kreditlar va ular

bo`yicha hisoblangan foizlarni o`z vaqtida undirib olishni ta`minlashga yo`naltirilgan bilimlar, uslublar va chora-tadbirlar majmuasidan iborat.

Hozirgi paytda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo`naltirilayotgan bank kreditlar hajmi oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo`jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko`payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo`yicha hisoblangan foizlarni o`z vaqtida undirib olishni ta`minlash banklar kredit portfeli ustidan doimiy monitoring olib borishni talab etmoqda.

Bank kredit portfeli monitoringi jarayoni to`rt bosqichdan iborat:

- kreditlarni rasmiylashtirishning qonuniyligi va to`g`riligini nazorat etish;

- berilayotgan kreditlarning maqsadga muvofiq ishlatilishini ta`minlash va nazorat etish;

- qarzdorning va kafolat beruvchining moliyaviy holatini, garovga olingan mulkning butligini doimiy kuzatib borish hamda kredit va u bo`yicha hisoblangan foizlarning belgilangan grafik asosida undirilishini nazorat qilish;

- kredit va u bo`yicha hisoblangan foizlarni shartnomada belgilangan muddatlarda to`liq undirib olishni ta`minlash, o`z vaqtida undirilmagan taqdirda zudlik bilan keskin chora-tadbirlar belgilash.

Kreditlarni rasmiylashtirishning dastlabki bosqichida, avvalo mijozning taqdim etgan biznes-rejasi bilan birgalikda uning moliyaviy ahvolini chuqur tahlil etish lozim.

Kreditni rasmiylashtirish jarayonida mijozning moliyaviy ahvolini o`rganish bilan birga, kreditning ta`minot ob`ektini chuqur tahlil etish ham muhim ahamiyatga ega. Agar kredit ta`minoti sifatida uchinchi shaxslarning kafolati taqdim etilgan bo`lsa, bu shaxslarning moliyaviy holati chuqur tahlil etilishi lozim va qarzdor tomonidan ba`zi bir sabablarga ko`ra kreditni o`z vaqtida qaytarishda qiyinchiliklar tug`ilgan paytda ushbu kreditni kafolat

beruvchi shaxsdan undirib olishga shubha bo`lmagan taqdirdagina, kafolatni kredit ta'minoti sifatida qabul qilish mumkin.

Agar kredit ta'minoti sifatida ko`chmas yoki ko`chadigan mulklarni garovga qo'yish taklif etilsa, kredit vaqtida qaytarilmagan taqdirda, ushbu mulklarni tezlikda sotib, unlan tushgan tushumdan kredit va hisoblangan foizlarni to'liq undirib olishga shubha bo`lmagan taqdirdagina, qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Qarz oluvchilarning moliyaviy ko`rsatkichlari, ta'minlanganlik qiymati barcha kredit hujjatlarining tahlilidan kelib chiqqan holda, kreditlar quyidagi tavakkalchilik guruhlariga kiritiladi:

- tavakkalchilik darajasi kam bo`lgan kreditlar (tasniflanmaydigan kreditlar);
- tavakkalchilik darajasi yuqori bo`lgan kreditlar;
- tavakkalchilik darajasi chegaralangan kreditlar;
- qoidalardan istisno tariqasida beriladigan kreditlar.

Bank doimiy ravishda xizmat ko`rsatayotgan mijozlarining faoliyatiga doir axborotlarga ega bo`lib, ularning kreditga layoqatliligi, to'lov intizomiga amal

1-jadval

Bank kredit portfelini tahlil etishning asosiy bosqichlari⁴

<i>Nº</i>	<i>Tahlil etish bo`limlari</i>	<i>Ma'lumotlar</i>
1	Kreditlar holati tahlili	Joriy, muddati o`tgan kreditlar, undirilmagan kreditlar, sud jarayonidagi ssudalar, ro`yxatdan chiqarilgan kreditlar
2	Kreditlarning muddatlari bo`yicha tahlili	Qisqa muddatli kreditlar Uzoq muddatli kreditlar Overdraft krediti Kontokorrent krediti
3	Iqtisodiy sohalar bo`yicha tahlil	Sanoat, qishloq xo`jaligi, kichik biznes, savdo, davlat transhi, mikrokreditlar, iste'mol krediti

⁴ Jadval muallif tomonidan tayërlangan.

4	Foiz stavkalari tahlili	Imtiyozli foiz stavkasi Kayta moliyalashtirish stavkasi Tijoratli foiz stavkasi
5	Ta'minot turi bo'yicha tahlil	Ishonchli kreditlar, mol-mulk garovi ostida beriladigan kreditlar, uchinchi shaxs kafilligi ostida berilgan kreditlar va kafolatlangan kreditlar
6	Kreditlar sifati tahlili	Birinchi sinf(yaxshi), standart, substandart, shubxali va umidsiz
7	Kredit tarixi tahlili	Bank o'z mablag'lari hisobiga beriladigan kreditlar, qayta moliyalashtirish mablag'lari, filiallararo va transh mablag'lari hisobidan berilgan kreditlar
	Kreditlarning maqsadlariga qarab tahlil etish	Tijorat krediti Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun beriladigan kreditlar
	Tahlil jarayonidagi kreditlar o'zgarishi dinamikasi	Kredit hajmining o'sishi(kamayishi), muammoli kreditlar hissasi va ular bilan ishlash samaradorligi, zahiralar summasi, kredit aktivlarining rentabelligi

qilishlari holatini tahlil etib borib “ma'lumotlar banki” bazasini vujudga keltirib boradi.

Bankning kreditlash jarayonidagi nazorat va tahliliy ishlari quyidagilarga qaratiladi:

- kredit shartnomasidagi shartlarning bajarilishi;
- kredit oluvchining kreditdan samarali foydalanishini ta'minlash;
- kreditni o'z vaqtida va to'liq qaytarilishi;
- kreditdan foydalanishning butun davri mobaynida, kredit oluvchi bilan yaqin aloqalarni saqlab turish.

Bank kredit portfelini tahlil etishning asosiy bosqichlari 1-jadvalda ko'rsatib o'tilgan.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, kredit portfeli monitoringi mobaynida bank tomonidan kreditlarning holati, muddati, iqtisodiy sohalar bo'yicha taqsimlanishi, ta'minot turlari, kreditlarning sifati va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil ishlarining doimiy

tarzda olib borilishi, o'z navbatida kredit portfeli sifatiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Kredit portfelini boshqarish bank tomonidan kredit portfeli tarkibi va uning sifat tarkibi yuzasidan doimiy nazoratni amalga oshirishni taqozo etadi.

Kredit portfelini boshqarish tamoyillari tijorat banklari tomonidan ishlab chiqilib, o'z tarkibiga quyidagilarni oladi:

A. Kredit tavakkalchiligini boshqarishga mos bo'lgan muhitni yaratish.

1 Tamoyil: Bank Kengashi bank kredit siyosati va kredit tavakkalchiligini boshqarish strategiyasini tasdiqlash va unga rioya qilinishini nazorat qilish bo'yicha javobgardir. Strategiya bankning tavakkalchilikka nisbatan ehtiyotkorligi hamda bank tomonidan zimmaga olingan kredit risklarining daromadlilik darajasini aks ettirishi lozim.

2 Tamoyil: Boshqaruv Bank Kengashi tomonidan tasdiqlangan kredit tavakkalchiligi bo'yicha strategiyani amaliyotga joriy etish bo'yicha javobgardir. U shuningdek kredit tavakkalchiligini aniqlash, baholash, monitoring va nazorat qilish mezonlarini ishlab chiqadi. Bunday siyosat va mezonlar bank faoliyatining barcha jabhalarda yuzaga keladigan kredit tavakkalchiligini qamrab olishi shart.

3 Tamoyil: Faoliyatning barcha yo'nalishlari va xizmatlar bilan bog'liq kredit tavakkalchiligini aniqlash va boshqarish zarur. Bank o'z zimmasiga yangi faoliyat yoki xizmat turlarining joriy etilishi bildan bog'liq kredit tavakkalchiligini qabul qilishdan oldin tegishli mezonlarni ishlab chiqishi hamda bankning oliy rahbariyati yoki tegishli qumita tomonidan tavakkalchilikni zimmaga olinishi tasdiqlanganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

V. Asoslangan kreditlarni berish chog'idagi faoliyat.

4 Tamoyil. Bank qat'iy aniqlangan va belgilangan mezonlar doirasida kreditlarni berish faoliyatini amalga oshiradi. Bunday mezonlar jumlasiga bank ish olib borayotgan bozorning aniq ko'rsatilishi, qarzdor yoki kontrhamkor to'g'risida to'liq ma'lumot bo'lishi, shuningdek kreditning yo'nalishi va strukturasi hamda uni so'ndirish manbalari aniq ko'rsatilishini oladi.

5 Tamoyil. Bank tegishli kitoblar, balans va balansdan tashqari hisob raqamlarda qarzdorlar va kontrhamkorlar, shuningdek o`zaro bog`liq kontrhamkorlar darajasida turli turdagi tavakkalchiliklarni taqqoslash va ahamiyatini aniqlash asosida umumiy kredit me`yorlarini belgilashi zarur.

6 Tamoyil. Bank yangi kreditlarni tasdiqlashning hamda mavjud kreditlarga tegishli o`zgartirishlar, yangiliklar kiritishning aniq o`rnatilgan tizimiga ega bo`lishi kerak

S. Kredit boshqaruvini olib borish.

7 Tamoyil. Bankda turli kredit portfellarini boshqarish tizimi bo`lishi kerak.

8 Tamoyil. Bankda rezervlarga ajratmalar va rezervlar adekvatligini aniqlashni o`z ichiga oluvchi alohida kreditlar holati yuzasidan monitoring tizimi bo`lishi lozim.

9 Tamoyil. Bank kredit tavakkalchiligi boshqarish uchun kreditlarning ichki reytingi tizimini ishlab chiqishi va undan foydalanishi zarur. Reyting tizimi bank faoliyatining turi, ko`lami va murakkabligiga mos kelishi kerak.

10 Tamoyil. Bankda rahbariyat tomonidan balans va balansdan tashqari faoliyatga oid kredit tavakkalchiligini boshqarish imkoniyatini beruvchi informatsion tizimlar va analitik texnologiyalar bo`lishi kerak.

11 Tamoyil. Bankda kredit portfelining umumiy tarkibi va sifati monitoringini o`tkazish tizimi bo`lishi lozim.

12 Tamoyil. Alohida kreditlar, shuningdek umuman kredit portfelini baholashda bank kelajakda iqtisodiy sharoitning o`zgarishini hamda noqulay sharoitda yuzaga kelishi mumkin bo`lgan kredit tavakkalchiligini hisobga olishi zarur.

D. Tegishli kredit nazoratini ta`minlash.

13 Tamoyil. Bank kredit tavakkalchiligini boshqarish jarayonlarini baholashning mustaqil tizimini tashkil etishi va tahlil ma`lumotlarini Bank Kengashi yoki oliy rahbariyatga to`g`ridan – to`g`ri taqdim etishi kerak.

14 Tamoyil. Bank kreditlarni berish jarayonlarini boshqarishni ta'minlashi va kreditlar standartlar va me'yorlar doirasida berilayotganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

15 Tamoyil. Bankda kredit tavakkalchiligini boshqarishdagi muammolarni tezkorlik bilan hal qilish tizimini bo'lishi lozim.

Tijorat banki daromad bilan tavakkalchilik o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashda o'zini ortiqcha tavakkalchilikdan muhofaza qilgan holda foyda me'yorini cheklab qo'yishga majburdir.

Tijorat banki tavakkalchilikni boshqarish siyosatini amalga oshirishi va bir necha yirik qarz oluvchilarda kreditlarning me'yordan oshiqcha miqdorda to'planishiga yo'l qo'ymasligi lozim. Bunday siyosat kredit qaytarilmagan holatda jiddiy oqibatlardan saqlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tijorat banklari kredit portfeli to'g'ri tashkil etish va undan oqilona foydalanish uchun quyidagi omillarni hisobga olish lozim:

- Kreditlar bo'yicha risk darajasi;
- Kreditdan foydalanish muddati;
- Kredit qaytarilish muddati uzaytirilishi;
- Kredit hajmi va uning ta'minlanganligi;
- Mijozning moliyaviy holati, uning mulk shakli;
- Mamlakat iqtisodiyotidagi shart-sharoitlar o'zgarishi;
- Inflyatsiya darajasi.

Mazkur omillarni sinchiklab o'rganib chiqish va shunga muvofiq ish tutish tijorat banklari uchun o'z kredit portfelini samarali boshqarish imkonini beradi.

I bob buyicha xulosalar

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarining kredit siyosatiga, ularning kredit portfeli va uning sifatiga, undan foydalanish darajasiga katta e'tibor beriladi. Chunki kredit portfelining to'g'ri tashkil qilinishi banklarning samarali faoliyat yuritayotganligidan dalolat beradi.

Ichki auditor ichki nazorat qismi sifatida amalga oshirilayotgan faoliyatni baholash tadbirini o`tkazish tarkibiga, xususan, uning «bir xilligi, samaradorligi va unumdorligi» nuqtai nazaridan kiritiladi. Bunda auditorlar va yuqori turuvchi menejerlar, shuningdek, boshqa xodimlar o`rtasidagi samarali bank ichki kommunikatsiyalari samarador tadbirlar va qat'iy ifodalangan siyosatning etarlicha mos emasligida tavakkalchilikni eng past darajaga etkazish uchun zarurdir. Samarali nazorat ichki nazoratchilar o`rtasida bank tarkibidagi puxta kommunikatsiyalar bo`lishini talab etadi.

Bank kredit portfeli monitoringi - bu kredit resurslarini ratsional joylashtirish va undan samarali foydalanish hamda berilgan kreditlar va ular bo`yicha hisoblangan foizlarni o`z vaqtida undirib olishni ta'minlashga yo`naltirilgan bilimlar, uslublar va chora-tadbirlar majmuasidan iborat.

Hozirgi paytda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo`naltirilayotgan bank kreditlar hajmi oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo`jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko`payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo`yicha hisoblangan foizlarni o`z vaqtida undirib olishni ta'minlash banklar kredit portfeli ustidan doimiy monitoring olib borishni talab etmoqda.

II-Bob. Moliyaviy muassasa sifatida tijorat banklari faoliyatini tashkil etish va boshqarish amaliyotining tahlili

1. Tijorat banklarining moliyaviy muassasa sifatidagi rivojlanish tendentsiyalari

Banklar paydo bo`lishining asosi bo`lib tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi hisoblanadi. Tovlar-pul munosabatlarining bo`lishi va ularning rivojlanib borishi barcha ijtimoiy iqtisodiy tizimlarda banklarning bo`lishini taqozo qiladi.

Prezidentimiz bank tizimining holatiga to`xtalib quyidagi fikrlarni ham bildirib o`tdilar, “Tijorat banklarimizning tashqi majburiyatlar bo`yicha to`lovlarining holati va xajmi masalasi bo`yicha so`z yuritganda hech qanday xavotirga o`rin yo`q. Bu ham respublikamiz bank tizimi jahon moliyaviy inqirozining salbiy ta`siri va oqibatlaridan ishonchli tarzda himoyalanganini ko`rsatadi”⁵.

Bank tizimi – bu mamlakat hududida tarixan shakllangan va konkn bilan mustahkamlangan kredit tashkilotlarining faoliyat ko`rsatish shaklidir. Xuddi pul va moliya tizimi kabi bank tizimi o`ziga hos milliy belgilariga egadir. SHu belgilar shu hududning, geografik shartlari ob-xavo aholi milliy tuzilishi, ularni nima bilan mashgulligi, kushnilar bilan munosabati, savdo yo`llari va omillar asosida shakllanadi.


Banklar korxonalar, tashkilot, davlat muassasalari, aholi bo`sh pullarini jalb qilish orqali katta xajmdagi kapitalni o`z ko`llarida jamlaydilar va daromad keltiruvchi kapital harakatini boshqarib boradi.

Shunday qilib, bank faoliyati xalq xo`jaligida mavjud bo`lgan bo`sh mablag`larni jalb qilish va ssuda kapitalini taqsimlashni o`z ichiga oladi. Bank o`z faoliyati davomida ma`lum daromadga ega bo`ladi. Bu daromad bank jalb

⁵ Karimov I.A. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va chorolari.-T.:O`zbekiston, 2009 y.- 8 b.

qilgan resurslarga toʻlaydigan foiz bilan joylashtirilgan resurslar boʻyicha oladigan foiz oʻrtasidagi farq (marja)dan iborat buladi.

Banklar bajaradigan funktsiyalar ularning bajaradigan vazifalariga qarab turli hil boʻlishi mumkin (4-rasm).



4-rasm. Oʻzbekistonda faoliyat koʻrsatayotgan tijorat banklari tarkibi

Bank tizimi miqyosida olib qaraydigan boʻlsak, banklar quyidagi funktsiyalarni bajaradilar:

- vaqtincha boʻsh turgan mablagʻlarni yigʻish va kapitalga aylantirish;
- kredit munosabatlarida vositachilik qilish;
- toʻlov jarayonlarida vositachilik qilish;
- muomalaga kredit vositalarini chiqarish.

Tijorat banklarining vazifalari quyidagilardan iboratdir:

-vaqtinchalik boʻsh pul mablagʻlari, jamgʻarmalar va yigʻmalarni mujassamlashtirish,

-hisob-kitob toʻlov mexanizmi faoliyat koʻrsatishini taʼminlash, Xalq xoʻjaligida hisob-kitobini amalga oshirish va tashkil etish, toʻlov muammosini yulga kuyish,

-alohida xoʻjalik birliklari, yuridik va jismoniy shaxslarni kreditlash, ichki va tashki xoʻjalik aylanmasiga kredit moliya xizmatini koʻrsatish,

- veksellarni hisobga olish va ular bilan operatsiyalar o`tkazish,
- moliyaviy va moddiy boyliklarni saqlash,
- mijozlarning mulkini ishonchli tarzda boshqarish(trast o`preatsiyalar).

Tijorat banklarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:


Moliyaviy vositachilik, ishlab chiqaruvchi, ya'ni bank mijozlarining topshiriknomalari bo`yicha tovarlar va xizmatlar uchun to`lovlarni amalga oshiradi. Yana kafillik qilish, ya'ni mijozlarni qo`llab-quvvatlash, mijozlarning mulklarini boshqarish va himoya qilish, iqtisodietning rivojlanishini tartibga solib turish va ijtimoiy maqsadlarga erishishga qaratilgan davlat siyosatini o`tkazish vazifalarini bajardi.

Pul mablaglarini jamlash va ularni ssuda karzga berish banklarning asosiy vazifasi hisoblanadi. To`lovlarda vositachilik qilish esa ular vazifasi doirasiga muxim ish sanaladi. Banklar pul mablaglarini uzida saqlashni markazlashtirar ekan, mijozlar topshiriknomasi bo`yicha etkazib beruvchilar va xaridorlar bilan hisob-kitob kiladi, gazna to`lovlar xamda korxonalarga kassa xizmatini amalga oshiradi. Bu vazifa banklar urtasida xam, mijozlar urtasida xam hisob-kitob operatsiyalarni amalga oshirishdan iborat. Xalq xo`jaligida hisob-kitoblar Markaziy bank tomonidan belgilangan shakllarda olib boriladi. Bankda hisob-kitob xujjatlarning kurinishi va pul to`lovchi xamda oluvchi xuj-jatlarning aylanishini tashkil etish nakd pulsiz hisob-kitoblarning quyidagi asosiy shakllarini belgilab beradi: to`lov talabnomalari, to`lov topshiriknomalari, hisob-kitob cheklari va akkredetivlar.

Ayni vaqtda, respublika bank tizimidagi islohotlar O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011–2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko`rsatkichlariga erishishning ustuvor yo`nalishlari to`g`risida"gi 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli qarori hamda Hukumatimiz tomonidan belgilangan vazifalar doirasida olib borilmoqda. Fikrimizcha, mamlakatimiz bank tizimi barqarorligini mustahkamlash bo`yicha amalga oshirilayotgan

chora-tadbirlarning ustuvor yo`nalishlari sifatida quyidagilarni ajratib ko`rsatish maqsadga muvofiq.

Tijorat banklarini yanada kapitallashtirish, banklarning resurs bazasini ko`paytirish hisobiga banklarning moliyaviy barqarorligi va likvidligini oshirish. Ushbu yo`nalishda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida banklarning jami kapitali oxirgi o`n yilda 10,6 barobarga ortib, 2012 yil 1 yanvar holatiga 5,3 trln. so`mni tashkil etdi (5-rasm).



5-rasm. O`zbekiston tijorat banklarining yalpi kapitali, mlrd. so`m⁶.

Joriy yilda ham tijorat banklari kapitallashtirish darajasi va resurs bazasini yanada oshirish hamda ko`rsatilayotgan bank xizmatlari ko`lamini kengaytirish borasidagi ishlarni davom ettirish va bunda tijorat banklari Kengashlarining rolini kuchaytirish, bank tizimining umumiy ustav kapitalida nodavlat sektori ulushini oshirish belgilangan. Xususan, 2012 yilda banklar jami kapitalining yil mobaynida kamida 15 foizga o`shirishini ta`minlash choralari ko`rilmoqda.

1. Omonatchilar uchun kafolatlarni kuchaytirish va bank tizimiga aholi hamda xorijiy investorlarning ishonchini yanada mustahkamlash, yangi jozibali omonatlar va depozitlarni tatbiq etish, ko`rsatilayotgan bank xizmatlarining turi va ko`lamini kengaytirish yo`li bilan aholi hamda xo`jalik sub`ektlarining bo`sh mablag`larini bank aylanmasiga keng jalb etish. Ko`rilgan chora-tadbirlar

⁶ O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma`lumotlari asosida tuzilgan.

natijasida banklarning jami depozitlari hajmi 2007 yil boshiga nisbatan qariyb 7,4 martaga oshib, 2012 yil 1 yanvar holatiga 18,0 trln. so`mga etdi. Shuningdek, aholining banklardagi pul mablag`lari qoldig`i 2003 yilga nisbatan 5,9 trln. so`mga yoki 25,2 barobarga ortib, 2012 yil 1 yanvar holatiga 6,2 trln. so`mni tashkil etdi.


Aholi omonatlarining tarkibida jamg`arma va muddatli omonatlar 88,1 foizni egallashi uzoq muddatli investitsion resurslarni bank tizimiga jalb etish bo`yicha erishilgan yutuqlardan biri hisoblanadi. Aholining talab va ehtiyojlarini inobatga olgan holda, hozirda tijorat banklari tomonidan 400 dan ortiq omonat turlari taklif etilmoqda. Banklardagi omonatlar hajmining oshishida aholi real daromadlarining o`shishi hamda bank tizimining barqarorligi banklardagi omonatlarning to`liq qaytarilishi davlat tomonidan kafolatlanganligi va ulardan olinadigan foiz daromadlari soliqdan ozod etilganligi asosiy omil bo`lmoqda.

2012 yilda aholi va xo`jalik sub`ektlarining tijorat banklaridagi depozitlari hajmini kamida 20 foizga oshirish, aholi va xo`jalik sub`ektlari talablarini hisobga olgan holda depozit va omonatlarning yangi turlarini muntazam ravishda joriy etish, shu jumladan, uzoq muddatli obligatsiyalar va depozit sertifikatlarni chiqarish, subordinar qarzlarni faol jalb qilish borasidagi ishlarni davom ettirish belgilangan

3. Bank nazoratini xalqaro amaliyotdagi yangi o`zgarishlarni inobatga olgan holda takomillashtirish. 2012 yilda tijorat banklari kapitalining etarligi va likvidligiga qo`yilgan talablarni xalqaro andozalar asosida qayta qo`rib chiqib, bu borada Bazal qo`mitasining yangi tavsiyalarini amaliyotga tatbiq etish ishlari davom ettirish belgilangan. Bank nazorati bo`yicha Bazal qo`mitasining yangi tavsiyalarini amaliyotga joriy etish uchun xalqaro moliya institutlaridan texnik yordam va ekspertlarni jalb etish rejalashtirilgan. Bazal qo`mitasini bank kapitalining etarliligi bo`yicha tavsiyalaridan birinchi darajali bank kapitalining sifati va uning etarlilik darajasini oshirish, konservatsion bufer kapitalini (moliyaviy inqirozlar davridagi zararlarni qoplash uchun zaxira) hamda

kontrtsiklik bufer kapitalini (tsiklik o`zgarishlar zararlarini oldini olish uchun zaxira) tashkil etish ishlari olib borilmoqda.

Tijorat banklarining investitsiya faolligini kuchaytirish, kreditlar bo`yicha muammoli qarzlarning hosil bo`lishiga yo`l qo`ymaslik choralarini ko`rish yo`li bilan tijorat banklarining kredit portfeli muttasil o`sishi hamda sifati yaxshilanishini ta`minlash. Hozirda, tijorat banklarining umumiy aktivlari 2005 yilga nisbatan qariyb 21,9 trln. so`mga yoki 4,9 barobarga oshib, 27,5 trln. so`mga etdi (6-rasm).



6-rasm. Tijorat banklari aktivlari qiymati (mlrd.so`m) ⁷.


Banklar tomonidan ajratilgan kreditlar qoldig`i 4,1 trln. so`m yoki 35,6 foizga oshib, 2012 yil 1 yanvar holatiga 15,7 trln. so`mni tashkil etdi. Agar 2000 yilda kredit portfelinig 54 foizi tashqi qarzlari hisobidan shakllantirilgan bo`lsa, 2011 yilda uning 85,3 foizi ichki manbalar – yuridik va jismoniy shaxslar depozitlari hisobidan shakllantirildi. Tijorat banklari qo`yilmalarining 75 foizdan ortig`ini uch yildan ziyod bo`lgan uzoq muddatli investitsiya kreditlari tashkil etmoqda. So`nggi o`n yilda banklarimiz tomonidan iqtisodiyotning real sektorini kreditlash 7 barobarga oshdi. Bu esa, o`z navbatida, iqtisodiyotimiz tarmoqlariga investitsiya kiritish va shuning

⁷ O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma`lumotlari asosida tuzilgan.

hisobidan taraqqiyotimizni ta'minlashda ichki imkoniyatlarimiz tobora ortib borayotganligini ko'rsatadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish, aholi bandligi va farovonligini oshirishning g'oyat muhim vositasi sifatida mikromoliyalash sohasini rivojlantirish. Hozirda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun turli imtiyoz va qulayliklar berilmoqda, imtiyozli kreditlash tizimi soddalashtirilmoqda.

2011 yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar hajmi 2005 yilga nisbatan qariyb 8,7 barobarga oshib, 4,0 trln. so'mni tashkil etdi (7-rasm) va mazkur mablag'lar hisobiga o'tgan yili hududlarda 291 mingtadan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi. Natijada turli soha va yo'nalishlar uchun mikrokreditlar ajratish istiqbolli ko'rsatkichlarining bajarilishi ta'minlandi.



7-rasm. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar hajmi (mlrd.so'm) ⁸.


2012 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, respublikamizda 30 ta tijorat banki faoliyat ko'rsatib, ularning 3 tasi davlat tijorat banki, 13 tasi aksiyadorlik tijorat banki, 9 tasi xususiy bank va 5 tasi chet el kapitali ishtirokidagi banklar hisoblanadi. Ularning 822 ta filiali tomonidan respublikamiz barcha hududlarida

⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzilgan.

mijozlarga bank xizmatlari ko`rsatib kelinmoqda. Bank muassasalari tarmog`ining kengayib borayotganligi banklar o`rtasidagi raqobat muhitining kuchayishi hamda bank xizmat turlari sifati va ko`lamining oshib borishiga imkon bermoqda.

Tijorat banklari oldiga 2011 yil uchun belgilab berilgan ustuvor vazifalardan asosiysi ham banklarning barqarorligi va kapitallashuv darajasini yanada oshirish, etakchi xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan qabul qilingan xalqaro me'yorlar, mezon va standartlarga asoslangan holda bank tizimini baholash ko`rsatkichlarining zamonaviy tizimini joriy etish belgilangan edi. Ushbu vazifalar doirasida O`zbekiston Respublikasi markaziy banki tijorat banklarining umumiy kapitalini qo`shimcha aktsiyalar chiqarish orqali 2011-2015 yillarda o`rtacha 2,1 martaga oshirilishini ta'minlash vazifasi qo`yildi.

Natijada bank tizimining moliyaviy barqarorligi va rivojlanish ko`rsatkichlari, xalqaro indikatorlar asosida tahlil qilinganda yuqori darajadagi baholarga muvofiq keladi. Jumladan, bank tizimi kapitalining etarlilik darajasi ko`rsatkichi 24,2 foizni tashkil qilib, bu bank nazorati bo`yicha Bazel qo`mitasi tomonidan umumqabul qilingan xalqaro standartlarga nisbatan 3 barobar ko`p bo`lgan darajani tashkil etdi.



8-rasm. Tijorat banklarining kapitali o`shish dinamikasi⁹.

⁹ O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ushbu diagrammaga ko`ra, so`nggi 4 yilda tijorat banklarining umumiy kapitali 2,5 barobar ko`paydi va bugungi kunda 5,3 trln. so`mdan oshib ketdi.

Mamlakatimizda 2008 yildan boshlab tijorat banklari tomonidan xalqaro reyting olish uchun «Mudis», «Fitch Reytings», «Standart end Purs», «Tompson Faynenshl Bank Votch», «Japan Kredit Reyting Ejensi», «Reyting Ejensi Malayziya» kabi nufuzli xalqaro reyting kompaniyalari bilan o`zaro hamkorlik ishlari davom ettirildi.

Kredit tizimi orqali huquqiy va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo`sh mablag`lari yig`iladi va korxonalar tashkilotlarga, davlatga vaqtincha foydalanishga beriladi. Kredit tizimi bir necha bo`g`inlardan iborat bo`lishi mumkin. Mablag`larni jalb qilishi va taqsimlanishiga qarab kredit tizimi o`zining tashkil qilinish turiga qarab qo`yidagi guruhlariga bo`linadi.

- Markaziy bank kreditlari;
- Tijorat banklar kreditlari;
- Maxsus-kredit institutlari kreditlari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ikki pog`onali kredit bank tizimi ko`p mamlakatlar iqtisodining asosi hisoblanadi. Bu Markaziy bank, bank institutlari va nobank kredit muassasalaridir.

Bank institutlariga qo`yidagi banklar kiradi:

- tijorat banklari;
- investitsiya banklari;
- jamg`armalar jalb qiluvchi banklar (O`zbekiston Respublikasida Xalq banki);
- savdo banklari.

Tashqi iqtisodiy aloqalar bo`yicha ixtisoslashgan banklar va boshqalar. Nobank kredit tashkilotlarga: nafaqa va boshqa fondlar kiradi:

Kredit tizimida bank institutlari tarkibida salmoqli o`rinni tijorat banklari egallaydi. Tijorat banklari kredit tizimining boshqa bo`g`inlariga nisbatan ko`proq bo`sh resurslarni jalb qiladi va ko`p miqdorda mijozlarga uzoq muddatli kreditlar beradi.

Maxsus ixtisoslashgan kredit institutlari (banklar) tijorat banklari faoliyatini to'ldiradi va ular xalq xo'jaligining kam rentabelli, kam foydali tarmoqlariga (qishloq xo'jaligi, uy joy ko'rilish, tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqalar) imtiyozli kreditlar berish yo'li bilan ularning faoliyatini rag'batlantirib, rivojlantirib boradi. Banklar ma'lum belgilariga qarab qo'yidagi turlarga bo'linadi:

- mulk shakliga qarab: aksioner, noaksioner, kooperativ, kommunal, davlat, aralash, xalqaro banklarga;
- kredit beruvchi banklarga;
- milliy mavqeyi bo'yicha: milliy va xorijiy banklarga;
- faoliyat ko'rsatishi va bajaradigan funktsiyalariga qarab: depozit, universal va ixtisoslashgan banklarga bo'linadi.

Aksioner banklar aksioner kompaniyalar sifatida yuzaga kelgan banklar bo'lib, aksiyalar chiqarish hisobidan ular kapitalining asosiy qismini yuzaga keltiradi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda bank tizimining asosiy qismini aksioner banklar tashkil qiladi.

Mayda ishlab chiqaruvchilar xunarmandlarning faoliyatini qo'llab quvvatlash maqsadida kooperativ banklar tashkil qilinadi. Bu banklarning mablag'larning ishtirokchilarning mablag'lari hisobidan vujudga keltiriladi va mijozlarga ularning faoliyatini rivojlantirish uchun engil sharoitida uzoq muddatli kredit beradi. Kommunal banklar ixtisoslashgan kredit tashkilotlar bo'lib, kommunal xo'jalik va uy-joy qurilishini kredtlash va moliyalashtirish bilan shug'ullanadi.

Davlat banklari davlat ixtiyorida bo'lgan kredit muassasalari bo'lib, ularning birinchi namunalari qadimiy Rimda va Misrda, keyinchalik XVI-XVII asrlarda Evropada vujudga kelgan. Davlat banklarining qo'yidagi turlari amaliyotda bo'lishi mumkin: markaziy tijorat banklari va maxsus kredit institutlar. Aralash banklar kapitali davlat tomonidan va bir qismi xususiy kapital tomonidan vujudga keltiriladi. Xalqaro banklar xalqro pul, hisob va kredit munosabatlarini olib boruvchi bank bo'lib, davlatlar o'rtasida valyuta,

kredit va moliya munosabatlari boshqarib boradi. Yirik xalqaro banklar qaroriga Evropa rivojlanish va taraqqiyot banki, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro Moliya korporatsiyasi, Xalqaro hisob kitoblar bankini, Evropa investitsiya bankini va boshqalarni kiritish mumkin. Xorijiy banklar to'liq yoki qisman chet el investorlariga tegishli bo'lgan banklar bo'lib, ular o'z faoliyatini mahalliy qonunlar doirasida olib boradi. Hozirgi vaqtda bunday banklar yirik banklarning shu'balari sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ba'zi davlatlarda mavjud depozit banklar jalb qilingan depozitlar hisobidan: hisob, kredit, ishonch operatsiyalarini olib boardi. Depozit banklar asosan jamg'armalarini jalb qilish va joylashtirish bilan shug'ullanadi. Universal banklar turli xil bank operatsiyalari depozit, kredit, hisob, foiz, vositachilik va boshqa operatsiyalarni bajaruvchi bank hisoblanadi. Germaniya, Shvetsariya, Avstriya kabi mamlakatlarning tijorat banklari universal banklar hisoblanadi. Ixtisoslashgan banklar xalq xo'jaligining ma'lum sohalariga xizmat ko'rsatuvchi aholiga xizmat ko'rsatuvchi banklardir.

Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidlagan: «Ixtisoslashtirilgan banklarning turi sifatida investitsiya, jamg'arma, rivojlanish va taraqqiyot banklarini keltirish mumkin. Kredit tizimining yana bir qismi nobank kredit muassasalari bo'lib, davlat va korxonalarni moliyalashtirish, o'zoq muddatli kreditlash bilan shug'ullanadi. Izchil yuqori o'sish sur'atlari, yurtimizda barpo etilgan bank-moliya tizimining barqaror va ishonchli faoliyat yuritishi, iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan yangilanish va o'zgarishlar, umuman, mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lidagi dadil qadamlarimiz dunyo jamoatchiligi, shuningdek, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki singari nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan e'tirof etilmoqda»¹⁰.

2. Tijorat banklari xizmatlari bozorining rivojlanish tahlili

¹⁰ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2011. 56 B.

Banklar korxonalar, tashkilot, davlat muassasalari, aholi bo'sh pullarini jalb qilish orqali katta hajmdagi kapitalni o'z ko'llarida jamlaydilar va daromad keltiruvchi kapital harakatini boshqarib boradi.

Bank faoliyati xalq xo'jaligida mavjud bo'lgan bo'sh mablag'larni jalb qilish va ssuda kapitalini taqsimlashni o'z ichiga oladi. Bank o'z faoliyati davomida ma'lum daromadga ega bo'ladi. Bu daromad bank jalb qilgan resurslarga to'laydigan foiz bilan joylashtirilgan resurslar bo'yicha oladigan foiz o'rtasidagi farq (marja)dan iborat buladi.

Banklar bajaradigan funktsiyalar ularning bajaradigan vazifalariga qarab turli hil bo'lishi mumkin. Bank tizimi miqyosida olib qaraydigan bo'lsak, banklar quyidagi funktsiyalarni bajaradilar:

- vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni yig'ish va kapitalga aylantirish;
- kredit munosabatlarida vositachilik qilish;
- to'lov jarayonlarida vositachilik qilish;
- muomalaga kredit vositalarini chiqarish.

Xalq xo'jaligida vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni yig'ish va ularni kapitalga aylantirish – banklarning ilk funktsiyalaridan biri hisoblanadi. Bu funktsiyaning amalga oshirilishi natijasida bir tomondan, xukukiy va jismoniy shaxslar jalb qilingan mablag'lari bo'yicha ma'lum miqdorda daromadga ega buladilar, ikkinchi tomondan, bu mablag'lar banklarning kreditlash qudratini tashkil qiladi va shu resurslarga asoslangan xolda banklar ssuda operatsiyalarini olib boradilar.

Vaqtincha bo'sh mablag'lar banklar ishtirokisiz bir korxonalar tomonidan ikkinchi korxonalar vaqtincha foydalanishga beriladigan bo'lsa, bu munosabatlarni tashkil qilishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin:

-kreditga so'ralayotgan summa bilan kreditga berilishi mumkin bulgan summa o'rtasida nomutanosiblik bo'lishi;

-ortiqcha bo'sh mablag'ga ega bo'lgan korxonalar mablag'larini vaqtincha foydalanishga beradigan muddati mablag' zarur bo'lgan korxonalar koniyqtirmasligi;

-banklar ishtirokisiz korxonalarni to'g'ridan to'g'ri kreditlashda qarz beruvchi qarz oluvchi korxonaning moliyaviy ahvolini to'liq o'rgana olmasligi mumkin. Qarz oluvchining to'lovga layoqatsiz bo'lishi kreditor korxonaning qam moliyaviy ahvolidan yomonlashuviga va boshqa salbiy hollarga olib kelishi.

Xalq xo'jaligida barcha bosh pul mablag'larining bank tomonidan yig'ilishi natijasida vujudga keladigan kredit resurslari hisobidan qarz oluvchi korxonaga zarur bo'lgan summada, zarur bo'lgan muddatda kredit berishga imkoniyat yaratiladi. Undan tashqari bank korxonalarining to'lovga layoqatliligini har tomonlama tahlil qilishi, ularning moliyaviy ahvolidan yaqqolroq baholab bera olishi mumkin.

Iqtisodiy rivojlanishning o'sishi bank kreditining ko'llanilish qo'lamini kengaytirib beradi. Kredit faqatgina har kunlik faoliyat bilan bo'lik ishlab chiqarish va muomala jarayonining qisqa muddatli ehtiyojlari uchun emas, balki uzoq muddatga kapitalga bo'lgan ehtiyojni qoplashga yo'naltiriladi.

To'lovlarda vositachilik funktsiyasida banklar o'z mijozlarining topshirig'iga asosan to'lov jarayonlarini amalga oshiradi, hisob varaqlariga mablag'larni qabul qiladi, pul tushumlarining hisobini olib boradi, mijozlarga pul mablag'larini beradi.

Hisob-kitoblarning bank orqali olib borilishi muomala harajatlarning kamayishiga olib keladi. Mijoz mamlakat ichida va boshqa mamlakat bilan qiyinchiliksiz o'z mablag'larini bank orqali o'z hisob varaqasidan boshqa korxonaga hisob varaqasiga yoki boshqa mamlakat bankiga o'tkazishi mumkin.

Muomalaga kredit vositalarini chiqarish. Bank kreditining manbai faqat vaqtincha bosh mablag'lar va kapital bo'lib qolmasdan, kredit asosida chek-depozit emissiyasi ham amalga oshiriladi. Bank tomonidan beriladigan kredit miqdori mavjud jamg'armalardan ko'p bo'lsa, bank chek-depozit emissiyasini amalga oshirishi mumkin.

Undan tashqari, kredit yordamida muomalaga naqd pullar – banknotlar chiqariladi.

O'tgan davr mobaynida chet el sarmoyasini jalb etish, xorijiy moliya tashkilotlari tomonidan ochilgan kredit liniyalarini o'zlashtirish borasida ham bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

2010 yilda aholining banklardagi depozitlari 39 foizga oshib, 2011 yil 1 yanvar holatiga 1644 mlrd. so'mni tashkil etdi. Milliy valyutadagi depozitlarning umumiy summasida aholining muddatli va jamg'arma depozitlari ulushi 80 foizgacha o'sdi.¹¹

Bank tizimida olib borilayotgan kredit siyosati iqtisodiyotning real sektorini, ayniqsa, kichik biznes va tadbirkorlikni moliyalash tirishga yo'naltirilgan. Jumladan, 2011 yilda banklar tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga milliy valyutada berilgan kreditlari qoldig'i 22 foizga oshdi. Uzoq muddatli kreditlarning umumiy kreditdagi ulushi o'sish tendentsiyasini saqlagan holda 81 foizni tashkil qilib, 4987,2 mlrd. so'mga etdi.

Shuningdek, kichik biznes sub'ektlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilganligi, jumladan kredit berishda talab qilinadigan hujjatlar soddalashtirilib son jihatidan qisqartirilganligi tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarining tubdan yaxshilanishiga va ajratilayotgan kreditlarning oshishiga olib keldi.

2011 yil davomida kichik biznes sub'ektlariga tijorat banklarining o'z mablag'lari, byudjetdan tashqari jamg'armalar va xorijiy kredit liniyalari hisobidan jami 1250,7 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratilib, 2008 yilga nisbatan o'sishi 168,2%ni tashkil etdi

Bu borada respublikamizdagi banklarning 2010 yil uchun istiqbol ko'rsatkichlarini 2-jadval orqali ko'rishimiz mumkin.

Ushbu kreditlar tijorat banklarining o'z mablag'lari, xorijiy kredit liniyalari va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan ajratildi.

Kichik biznesni qo'llab quvatlash o'z navbatida ushbu soxadagi ish joyi yaratilishiga zamin yaratdi. Xususan, 2010 yilda kichik biznes sub'ektlariga

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari

barcha moliyalash manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar hisobiga jami 101330 ta yangi ishchi o`rinlari yaratilganligini ta'kidlab o`tish joiz.

2-jadval

O`zbekistonda 2010 yilda kichik va o`rta biznes sub'ektlariga tijorat banklari tomonidan xususiy mablag`larning ajratilishi¹²

<i>Banklar nomi</i>	<i>Miqdori, mln. so`m</i>
Milliy bank	53434
Tadbirkorbank	10964
Agrobank	10928
Asakabank	13934
Sanoatqurilishbanki	11026
Ipotekabank	11488
Savdogarbank	5535
Qurilishbank	2986
Hamkorbank	3037
Ipak yo`li banki	3813
Turonbank	2779
Aloqabank	2506
Trastbank	810
Boshqalar	6534
Jami	159626

Ushbu kreditlar tijorat banklarining o`z mablag`lari, xorijiy kredit liniyalari va byudjetdan tashqari jamg`armalar mablag`lari hisobidan ajratildi.

Kichik biznesni qo`llab quvatlash o`z navbatida ushbu soxadagi ish joyi yaratilishiga zamin yaratdi. Xususan, 2010 yilda kichik biznes sub'ektlariga barcha moliyalash manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar hisobiga jami 101330 ta yangi ishchi o`rinlari yaratilganligini ta'kidlab o`tish joiz.

¹² O`zbekiston respublikasi markaziy banki ma'lumotlari

Bank xizmatlari bozoriga tobora shaxdam odimlar bilan kirib kelayotgan bankdan tashqari tuzilmalar bilan raqobatning kuchayishi. Jumladan, aholiga kredit kartochkalari bilan xizmat ko'rsatish sohasida turli xildagi tijorat tuzilmalari faoliyat ko'rsata boshlaydi.

Bank xizmati sohasida bu kabi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni izchil amalga oshirib borish avvalo bank tizimining, qolaversa iqtisodiyotning qolgan jabhalarining moliyaviy barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni banklarning xususiy mablag'lari bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirish ham muhim yo'nalish hisoblanadi.

Bank xizmati sohasining samaradorligini oshirish, ayniqsa, xususiy banklar tarmog'ini faollashtirish O'zbekistonda bozor infratuzilmasini rivojlantirishning muhim yo'nalishi sifatida maydonga tushadi. Chunki, davlat hamda aktsiyadorlik-tijorat banklari faoliyatidan farqli o'laroq, xususiy banklarning taraqqiyotida ma'lum muammoli holatlar ko'zga tashlanadi.

Xususiy banklar nizom kapitallarining salmoqli emasligi yirik ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirishda ishtirok etishlarini cheklab, rivojlanishlariga to'sqinlik qilar edi. Shunga ko'ra, hozirda ko'plab xususiy banklar nizom kapitalini ko'paytirishning ikki yo'li – aktsiyalar emissiyasini amalga oshirish yoki boshqa banklar bilan birlashish orqali faoliyat ko'lamini yiriklashtirishga harakat qilmoqda.

Bank xizmati sohasida bu kabi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni izchil amalga oshirib borish avvalo bank tizimining, qolaversa iqtisodiyotning qolgan jabhalarining moliyaviy barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni banklarning xususiy mablag'lari bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirish ham muhim yo'nalish hisoblanadi.

Biroq, faqat milliy banklarning xususiy mablag'laridan kreditlash manbai sifatida foydalanish bugungi kunda iqtisodiyotimizning kreditga bo'lgan ehtiyojlarini qondira olmaydi. Shunga ko'ra, banklarning yana bir muhim vazifasi - xorijiy kredit liniyalarini o'zlashtirish orqali tadbirkorlarimizning kreditga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish sharoitlarini ta'minlashdan iborat.

To`g`ri, bu borada vaziyat ko`proq xorijiy kreditorlar va kredit oluvchi sub`ektlarga bog`liq bo`ladi. Biroq, mazkur jarayonni to`g`ri va samarali tashkil etish, xorijiy kreditorlarning ishonchli va istiqbolli hamkoriga aylanish, kredit oluvchilarning imkoniyat va salohiyatini to`g`ri baholay bilish va boshqa ko`p jihatlar milliy bank muassasalarimizga bog`liq bo`ladi.

Tijorat bankining optimal kredit siyosatini xarajatlarni qoplashga imkon beruvchi va ma`lum darajada foyda keltiruvchi siyosat sifatida tavsiflash mumkin. Tijorat banklari kredit siyosatini to`g`ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi, chunki kredit operatsiyalari bank operatsiyalari ichida asosiy o`rinni egallaydi. Shundan kelib chiqib, bank daromadining asosiy qismini bank kredit operatsiyalaridan keladigan daromad tashkil etadi. Bank kredit siyosatini to`g`ri tashkil etish, kredit riskini kamaytirishga xizmat qiladi. O`z navbatida esa, bank kredit portfelini boshqarish tartibi bank kredit siyosati orqali belgilanadi.

Hozirgi davrda tijorat banki kredit portfelini boshqarishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko`rsatib o`tishimiz mumkin:

- kredit riski darajasiga ta`sir ko`rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni baholash;
- ssudalarni risk guruhlari bo`yicha tasniflash;
- kredit portfelini kredit risklari, mijozlar tarkibi va ssudalar tarkibi bo`yicha optimallashtirish;
- qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini va uning moliyaviy ahvolidan, kredit riskini prognoz qilish maqsadida o`zgarishi ehtimolini aniqlash;
- muammoli ssudalarni oldindan aniqlash;
- yaratilayotgan zahiraning etarliligini baholash va uni o`z vaqtida to`g`rilab borish;
- kredit qo`yilmalarini diversifikatsiya qilishni, ularning likvidligini va daromadligini ta`minlash;

- bankning kredit siyosatini ishlab chiqish va uni kredit portfelining sifati tahliliga asoslangan holda to`g`rilab borish.

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishda yuqoridagi tamoyillarga amal qilish, bankning kredit faoliyati samaradorligini oshiradi, o`z navbatida, bankning ko`radigan foydasi ham oshadi. Kuchli raqobatchilik muhitida bank kredit siyosatida kredit menejmentiga alohida e`tibor berish muhimdir, bu bankka bozor sharoitida samarali faoliyati yurgizishi uchun zarur. Ma`lumki, tijorat banklari faoliyatida olinadigan foydaning 80-85 foizgacha bo`lgan qismi uning kredit operatsiyalariga to`g`ri keladi. SHu sababli ham, har qanday bank o`zining aniq va yo`naltirilgan kredit siyosatiga, kredit portfelini samarali boshqarish mexanizmiga ega bo`lishi shart. Bu esa bank tomonidan beriladigan kreditlarning o`z vaqtida to`liq so`ndirilishi va bank foydasining kafolatidir.

Hozirgi vaqtda bank kredit portfelini boshqarishdagi muammolar asosan bozor munosabatlariga o`tish sharoitidagi iqtisodiyotning ahvoli bilan bog`liq bo`lgan muammolar hisoblanadi. Jumladan:

- kredit risklarini yuzaga keltiruvchi omillar eng avvalo bank tomonidan anik kredit siyosatining ishlab chikilmaganligi;
- kredit siyosatining keragidan ortiq agresiv tashkil qilinganligi (kreditlarning aktivlardagi ulushi 65 % dan ortiq bo`lganda);
- tarmoqlar va operatsiyalar bo`yicha diversifikatsiyaning to`g`ri tashkil qilinmaganligi;
- blankli (ishonch asosidagi) kreditlarning kredit portfelidagi ulushining ko`pligi;
- insayderlar bilan shartnomalar hajmining ko`pligi;
- bank mutaxasislarining yuridik jihatdan etarli tajribaga ega bo`lmaganliklari;
- olinayotgan garovlarning to`g`ri tanlanmasligi. Bu bo`yicha ham yurist xulosasini olish o`ta muhimdir. Bugungi kunda kredit faqat garov yoki kafolat xati asosida berish mumkin lekin garovni realizatsiya qilish bo`yicha etarli mexanizm yo`qligi bu narsaning yanada riskini oshiradi;

- kredit talabi bilan kelgan mijozlar haqida ma'lumotlarning yo'qligi yoki ularni yig'ishning qiyinchiliklari ham mavjuddir;

- kredit olgan mijoz korxonalarida (ayniqsa ilgari faoliyat ko'rsatib keluvchi korxonalarida) rahbarlarning tez tez almashib turishi ham o'ziga yarasha riskli holatlarni yuzaga keltirmokda;

- bundan tashqari kredit portfelining katta qismini bir tarmoqqa tegishli mijozlar tomonidan egallab olishi holatlari;

- moliyaviy hujjatlar tahliliga yuzaki yondashish;

- mijoz talab qilgan mablag'ning to'liq asoslanganligini aniqlashda qo'yilgan xatoliklar;

- kredit hujjatlari bilan shug'ullanuvchi mutaxassisning etarli malakaga ega bo'lmay qolishi (Hozirgi sharoitda qoida va talablarning tez o'zgarib turishida bo'lishi mumkin);

- ilgari tajribasi bo'lmagan faoliyatni boshlagan mijozlarga kredit berish;

- yangi tashkil etilgan mijozlarning kredit portfelidagi ulushi;

- ta'minotlarning etarli bo'lmasligi (garov bahosining asossiz ravishda yuqori bo'lishi);

- hujjatlarni tayyorlashda yo'l qo'yilgan xatoliklar (bank manfaatlarini etarli himoya qilinmasligi);

- berilgan kredit bo'yicha muddat aniqlashda xatoliklarga yo'l qo'yish;

- qarzning so'ndirilish davrida etarli nazoratning bo'lmasligi.

Yuqoridagi bayon qilingan barcha muammolar hozirgi kunda respublikamizda mavjud bo'lgan barcha tijorat banklari uchun dolzarb, birlamchi, muammolar bo'lib hisoblanadi.

3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashda infratuzilma faoliyatini boshqarishning samaradorligini baholash

O`zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini modernizatsiyalash va isloh qilish jarayoni hamda raqobatchilikka asoslangan biznes muhit sharoitida davlat tasarrufidan chiqarilgan va xususiylashtirilgan korxonalar negizida tashkil etilayotgan xo`jalik sub'ektlari korporativ korxonalar faoliyatini samarali boshqarishni ta'minlash va ularning faoliyat samaradorligini yanada oshirishning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu korxonalarni boshqarish O`zbekistonda nisbatan yangi hisoblanuvchi korporativ boshqaruv mexanizmini shakllantirish va uni rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli izlanishlar olib borishni talab etadi.

Mamlakatning iqtisodiy va siyosiy hayotini erkinlashtirish jarayoni ro`y berayotgan hozirgi paytda bank tizimini isloh qilish, bank xizmati sohasida raqobatchilik muhitini yuzaga keltirish, banklarning aktivlarini mustahkamlash va ta'sischi ishtirokini faollashtirish orqali ularning barqarorligini ta'minlash bo`yicha muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning uchun endilikda tijorat banklarini xususiylashtirilishini va aktsiyalashtirilishini ta'minlash, bank ustavi Bank sohasida korporativ boshqaruv tajribasini keng joriy etish muassislar doirasini kengaytirish orqali, avvalo xorijiy sarmoyadorlar tomonidan banklar ustav kapitaliga qo`shimcha mablag`lar jalb etish imkonini beradi. bundan tashqari, korporativ boshqaruv iqtisodiyotning real (ishlab chiqarish) sohasiga xizmat ko`rsatish va kredit ajratish bo`yicha banklarning ahamiyatini ko`tarish, ularning investitsiya dasturlari va loyihalarini amalga oshirish borasidagi faoliyatini jadallashtirish, banklar va ularning mijozlari o`rtasidagi sherikchilik munosabatlarini mustahkamlash imkonini beradi.

O`zbekiston respublikasi tijorat banklari faoliyatida korporativ boshqarishni takomillashtirish maqsadiga erishish uchun quyidagi masalalarni izchil hal etish zarur hisoblanadi:

-bank sohasida korporativ boshqaruvni amalga oshirishning nazariy asoslari va xususiyatlarini o`rganish;

-xorijiy tijorat banklari ish faoliyatida korporativ boshqaruvdan foydalanish tajribasini tahlil etish;

-respublika bank sohasida korporativ boshqaruvning bugungi kun holatiga baho berish;

-aktsiyadorlik tijorat banklari faoliyatiga korporativ boshqaruvni joriy etish yo`lidagi muammolarni aniqlash;

-respublika tijorat banklari ish faoliyatiga korporativ boshqaruvni tatbiq etishni jadallashtirish yo`llarini belgilash;

-bank sohasida korporativ boshqaruvning mohiyati va mazmunini umumlashtirish;

O`zbekiston tijorat banklarida korporativ boshqaruv qo`llanishining o`ziga xos tomonlarini aniqlash;

-tijorat banklari dividend siyosatidagi muhim kamchiliklarni ochish; aktiv va passiv operatsiyalrni asoslash;

-aktsiyadorlik banklarida korporativ madaniyatni rivojlantirish yo`llarini o`rganish.

Bank korporativ boshqaruvining jahon tajribasida to`plangan umumiy jihatlari bank nazorati bo`yicha Bazal qo`mitasining 2009 yil sentyabr oyida qabul qilingan “Kredit tashkilotlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish” tavsiyalarida o`z ifodasini topdi.

Fikrimizcha, aktsiyadorlik tijrat banklari faoliyatining shaffofligi darajasini oshirishda “Axbor-reyting” kompaniyasi muhim o`rin tutishi zarur. Zero u O`zbekiston respublikasi banklar assotsiatsiyasi tomonidan banklarni moliyaviy barqarorligiga muntazam baho erib borish tizimini ishlab chiqish va ularning reytingiga oid ma`lumotlarni nashr etish maqsadida ish yurituvchi maxsus agentlik tarzida tuzilgan. 1997 yilda banklarning ishonchliligiga baho berishning mamlakatimiz bank tizimining o`ziga xos tomonlarini hisobga oluvchi reyting uslubi ishlab chiqildi, sinab ko`rildi va malakali tarzda

himoyalandi. “Axbor-reyting” har chorakda respublika tijorat banklarini reyting ishlarini o`tkazib turibdi, 1998 yildan boshlab ryeting natijalari matbuotda ochiq e`lon qilib borilmoqda.

Quyidagi 3-jadvalda “Turon” OATBning aktivlari tarkibini ko`rishimiz mumkin. Ushbu jadval ma`lumotlaridan kelib, shuni aytishimiz joizki, aholi sotilgan qimmatli qog`ozlari 2010yil 1yanvar holatiga 11.1sumni tashkil etgan bo`lsa, o`tgan yili shu muddatda uning hajmi 10,9sumni tashkil etgan edi. Ushbu bankning yuridik shaxslar faoliyatiga qo`ygan investitsion mablag`lari hajmi 2009yilda jami 4.8mlrd.sumni tashkil etgan bo`lsa, ushbu ko`rsatkich 2010yilda 8.6sumni tashkil etdi. Bank mijozlariga berilgan kreditlar jami 2009yili 904,2mlrd.sumni tashkil qilgan bo`lsa, 2010yilga kelib 1230,4 mlrd.sumni tashkil etdi.

3-jadval

“Turon” OATBning aktivlari tuzilishi¹³ (mlrd.so`mda)

Modda	01.01.2009	01.01.2010
Naqd pullar va boshqa xil kassa hujjatlari	31,1	26,5
O`zR MBdagi pul vositalari	202,	146,3
Boshqa banklardagi vositalar	113,1	70,2
Qimmatli qog`ozlari	10,9	11,1
Mijozlarga berilgan qarzlari	904,2	1230,4
Investitsiyalari	4,8	8,6
Asosiy vositalari	30,9	32,6
Boshqa aktivlari	162,7	125,7
Jami:	1459,8	1651,4

Kompaniya mutaxassislari tomonidan bozor qatnashchilarining moliyaviy-iqtisodiy ko`rsatkichlarini, xalq xo`jaligi tarmoqlari va hududlarini baholashni o`tkazish, tahlil qilish va bashorat etishning yangi texnologiyalari ishlab chiqildi. Bank tomonidan quyidagi uslubiyatlar ishlab chiqilib, amalda

¹³ “Turon” OATB ma`lumotlari

qo`llanilmoqda: banklar va ularning bo`linmalari reyting uslubiyati; korxonalar va tarmoqlar reyting uslubiyati; GAT (hududiy tarmoq ob`ektlarni nazorat qilishning geografik-axborot tizimi); DQMO bozori parametrlarini bashorat etish uslubiyati; valyuta kurslari, tovarlar baholari va boshqa iqtisodiy-moliyaviy jihatlarni bashorat qilish uslubiyati.

“Turon” OATB respublikaning etakchi tijorat banklaridan biri bo`lib, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, xorijiy kapital jalb etiladigan yirik investitsiyaviy loyihalarni moliyalashtiradi va kreditlaydi, shuningdek chakana xizmatlarni ko`rsatadi. Bank rivojlanishinig asosiy yo`nalishlari-iqtisodiyotning tarkibiy islohotlarida keng ko`lamli ishtirok etish,iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida ishlab chiqarishni yangilash, rekonstruktsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga oid investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish, resurslar bazasini dinamik ko`paytirishdir. Investitsiyaviy salohiyatni, kapitallashtirish darajasini doimiy oshirib borish va moliyaviy resurslar manbalarining diversifikatsiyasi faol operatsiyalar ko`lamini kengaytirish va kreditorlar,depozitorlar va investorlar oldidagi majburiyatlarining o`z vaqtida to`liq bajarilishi uchun asosiy omil bo`ladi.

Bank balans likvidligi holatiga yuksak e`tibor beradi, shoshilinch joriy va uzoq muddatli likvidlik me`yorlarini muntazam bajaradi, shuning uchun aktivlar tarkibida, kassada va Markaziy bankda pul mablag`lari shaklidagi moliyaviy resurslar katta hajmga ega – 172,8 mlrd.so`m.

“Turon” OATB 2009 yilda kengayishda davom etgan mijoz bazasini mustahkamlashga katta ahamiyat berdi. jumladan xususiy, qo`shma, xalqaro korxonalar, shuningdek jismoniy shaxslar-tadbirkorlarga xizmat ko`rsatiladi. Bankda turli tarmoqlar va mulk vakllaridagi xo`jalik idoralariga xizmat ko`rsatildi,ulardan eng ahamiyatlilari-neft va gaz sanoati, respublikaning kimyoviy, mashinasozlik, qurilish va energetik majmualarining korxonalari, yirik transport va savdo korxonalaridir. 2011 yil 1 yanvarga kelib “Turon” OATBning tizimida xususiy mijozlarning soni 958 mingdan ortdi

2009 yilda “Turon” OATB bir qator xalqaro moliyaviy institutlar bilan samarali hamkorlikni davom ettirdi. bankning muvaffaqiyatli faoliyati mashhur xalqaro reyting agentliklari va moliyaviy-tahliliy nashrlar muntazam e’lon qiladigan obro’li reyting-varaqlarida o’z aksini topdi. “Fitch Ratings” va “Standart&Poors” agentliklari Bankka reyting kredit layoqatining barqaror va istiqbolli prognozlari bo’lgan darajasini belgilaganlar.

“Turon” OATB 14 dan ortiq xorijiy vakil banklarga ega. Tijorat banklari samarali faoliyat ko’rsatishining eng muhim omillaridan biri ularning moliyaviy hisobotlarining shaffofligini va haqqoniyligini ta’minlashdan iboratdir. Shu bois, ichki audit tizimini va bank nazoratini rivojlantirish bilan birga, respublikamizda tashqi audit ahamiyatini, ayniqsa banklar faoliyatini mustaqil ommaviy baholash tizimini kuchaytirish zarur.

Bunda tijorat banklari atrofida taraqqiy topgan moliyaviy-investitsiya infrastrukturasi shakllanishi zarurligini ham hisobga olish kerak, negaki u aktsiyadorlar yoki ehtimoldagi sarmoyadorlar uchun bank faoliyati shaffofligini hamda menejerlar, xodimlar va mijozlar uchun malakali xizmat ko’rsatishning diversifikatsiyalangan mushtarakligini ta’minlaydi, bu esa o’z navbatida korporativ boshqaruvning samaradorligiga zamin yaratadi.

Har qanday xo’jalik yurituvchi sub’ektni, ayniqsa, bankni samarali boshqarish asosida, avvalo, inson omilini mujassam ifodasi yotganligini hisobga olinsa, O’zbekiston respublikasi tijorat banklarining rivojlantirish ishida ularning muassislari, menejerlari va barcha xodimlarining malakasini yuksaltirish, bu erda mulkchilikning mazkur ko’rinishining muhim va o’ziga xos xususiyati bo’lmish yangicha korporativ madaniyatning shakllantirilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda O’zbekiston respublikasi tijorat banklari korporativ madaniyat darajasini yuksaltirish jarayoniga ko’pincha muntazamlilik etishmayotganligining guvohi bo’lamiz. Korporativ boshqaruv bo’yicha chet ellarda to’plangan boy tajribani mamlakatimizda mavjud kollektiv hamkorlik va

ijtimoiy sherikchilik tajribasi bilan qo`shib olib borish imkoniyatidan sust foydalanilmoqda.

Korporativ hamjamiyat a'zolari korporativ madaniyatini oshirishning muhim yo`nalishlaridan biri Direktorlar kuzatuv kengashlari a'zolari o`z e'tiborini aktsiyadorlik jamiyatlarining faoliyatini boshqarish muammolariga qaratishlarini rag`batlantirib turish hisoblanadi. Bunda ularning rag`batlantirishning ijobiy vositalari (mukofotlash, imtiyozli aktsiyalarni ajratish, xorijiy safarlarga yuborish kabi) dan faol foydalanish, shuningdek bu jarayonda aksincha, mukofotdan mahrum etish, imtiyozli aktsiyalar miqdorini kamaytirish, korporativ hamjamiyat a'zolari o`rtasida izza qilish kabi turli xil sanksiyalarda ifodalanadigan vositalarni qo`llash zarur bo`ladi.

Shuningdek mamlakat aktsiyadorlik jamiyatlarida Kuzatuv kengashi faoliyatini mustahkamlash korporativ boshqaruvni takomillashtirishning muhim bo`g`inlaridan hisoblanib, investitsiyalarni jalb etish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va biznes muhitning rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi.

I I bob buyicha xulosalar

Bank nazoratini xalqaro amaliyotdagi yangi o`zgarishlarni inobatga olgan holda takomillashtirish. 2012 yilda tijorat banklari kapitalining etarligi va likvidligiga qo`yilgan talablarni xalqaro andozalar asosida qayta qo`rib chiqib, bu borada Bazal qo`mitasining yangi tavsiyalarini amaliyotga tatbiq etish ishlari davom ettirish belgilangan. Bank nazorati bo`yicha Bazal qo`mitasining yangi tavsiyalarini amaliyotga joriy etish uchun xalqaro moliya institutlaridan texnik yordam va ekspertlarni jalb etish rejalashtirilgan. Bazal qo`mitasini bank kapitalining etarliligi bo`yicha tavsiyalaridan birinchi darajali bank kapitalining sifati va uning etarlilik darajasini oshirish, konservatsion bufer kapitalini (moliyaviy inqirozlar davridagi zararlarni qoplash uchun zaxira) hamda kontrtsiklik bufer kapitalini (tsiklik o`zgarishlar zararlari oldini olish uchun zaxira) tashkil etish ishlari olib borilmoqda. "Turon" OATB respublikaning etakchi tijorat banklaridan biri bo`lib, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini,

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, xorijiy kapital jalb etiladigan yirik investitsiyaviy loyihalarni moliyalashtiradi va kreditlaydi, shuningdek chakana xizmatlarni ko`rsatadi. Bank rivojlanishinig asosiy yo`nalishlari-iqtisodiyotning tarkibiy islohotlarida keng ko`lamli ishtirok etish,iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida ishlab chiqarishni yangilash, rekonstruktsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga oid investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish, resurslar bazasini dinamik ko`paytirishdir.

III-Bob. O`zbekiston respublikasida moliyaviy muassasalarini zamonaviy boshqarishni takomillashtirish

1. Moliyaviy muassasalarni boshqarishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo`llari

Tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlari ulushii oshirish bo`yicha ko`rilgan choralar tufayli 3 yildan ortiq muddatga berilgan kreditlarning banklar kredit portfelining umumiy hajmidagi ulushi hozirgi paytda 69 foizga etdi va so`nggi o`n yilda 28 barobar ko`paydi. Ushbu tendentsiyani yaqin istiqbolda izchil oshirib borish vazifasi belgilab olingan bo`lib, banklar tomonidan berilgan kreditlar tarkibida investitsiya kreditlarining ulushini ortib borishi, mamlakatimizdagi keng qamrovli investitsiya siyosatni olib borishda banklarning ahamiyatini ortishi natijasi o`laroq ularning yirik investitsiya muassasalariga aylanishiga olib keladi. Banklar aktivlari tarkibida spekulyativ tavsifdagi kreditlarning kamayishiga va resurslarni real iqtisodiyotga qo`yilma qilish hisobiga Respublikamizning istiqboldagi rivojlanishida banklar hissasining yanada ortishiga olib keladi. O`z navbatida banklarning kapitallashuv darajasini oshirishga davlat qo`yilmalarning manzilliligi ortishini ta`minlaydi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investitsion faoliyatini yanada jonlantirish, xorijiy investitsiyalarni, avvalo to`g`ridan to`g`ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish va ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish, yangi ish o`rinlarini shakllantirish va bular asosida milliy iqtisodiyotimizni barqaror va dinamik rivojlanishini ta`minlash maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1213-sonli «O`zbekiston Respublikasining 2010 yilga investitsion dasturi haqida»gi Qarori¹⁴ tasdiqlangan bo`lib, ushbu dastur asosidagi kapital qo`yilmalarni moliyalashtirish manbalari tarkibida bank tizimi investitsion kreditlarning

¹⁴ www.lex.uz

ahamiyati yuqori bo'lmogda. Buni quyidagi jadval ma'lumotlari orqali ko'rishimiz mumkin.

4-jadval.

**O'zbekiston Respublikasida 2010 yilgi investitsion dasturi kapital
qo'yilmalarining asosiy parametrlari¹⁵**

№	Moliyalashtirish manbalarining nomlari	2010 yilgi prognoz, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan foizda
	Kapital qo'yilmalar, jami	18220,3	100
1.	Markazlashtirilgan investitsiyalar	3819,8	20,9
2.	Nomarkazlashtirilgan investitsiyalar	14400,5	79,1
2.1.	Korxonalar mablag'lari	7777,7	42,7
2.2.	Tijorat banklari kreditlari	1530,0	8,4
2.2.1	Shu jumladan, OATB «Turon»ining imtiyozli kreditlari	256,3	1,4
2.3.	To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar v kreditlar	3876,8	21,2
2.4.	Aholi mablag'lari	1216,0	6,6

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2010 yilgi investitsion dasturda belgilangan kapital qo'yilmalarning umumiy hajmi 18220,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, uning 8,4 foizi tijorat banklari kreditlari hisobiga moliyalashtiriladi. SHundan, «Turon» OATBning imtiyozli kreditlari 256,0 mlrd. so'mni tashkil qilib, asosan ushbu kreditlar qishloq joylarida uy-joy qurilishiga sarflanishi rejalashtirilgan.

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda islohotlarni yanada chuqurlashtirish borasida qo'yidagilarga alohida e'tibor berish lozim.

- insonning rivojlanishi va barkamolligini ta'minlashni rag'batlantirish;

¹⁵ O'zbekiston respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

- iste'mol bozorini zamonaviy xizmat turlari bilan to'ldirish va hajmini oshirish;

- xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish;

- mahalliy moddiy resurslardan foydalanish imkoniyatlari kengaytirish;

- jamiyat taraqqiy etib borishi bilan aholining xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlari uzluksiz kuzatib borish.

O'zbekiston respublikasida xizmatlar va servis sohasini rivojlantirishda qo'yidagilarni amalga oshirish muvofiqdir:

- xizmatlar ko'rsatish sohasida tadbirkorlikning faoliyatini yanada kuchaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratish;

- qishloq joylarda istiqomat qilayotgan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar turlarini ko'paytirib borish;

- an'anaviy xizmat turlari bilan birgalikda yangi istiqbolli – yuridik, konsalting, bank, moliya, sug'urta, lizing va baholash xizmat turlarini jadal rivojlantirish;

- mamlakatimiz korxonalarining xalqaro bozordagi xizmatlari darajasini va sifatini oshirish hamda shu asosda xizmatlar eksportini ko'paytirish;

- xizmatlar va servis sohasida ishlaydigan kadrlarni tayyorlash va ular malakasini oshirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash

Xizmat ko'rsatish va servis sohasi uchun prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish yo'nalishlari va ularni amalga oshirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishimiz darkor.

Kelgusi yillarga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha rivojlantirish ishlarni amalga oshirish lozim:

1. Xizmat ko'rsatish va servis sohasining barcha maqsadli ko'rsatkichlari bo'yicha 2 yil davomida olib borilgan monitoring natijalari asosida tahliliy jadvallar tayyorlash, ularni tanqidiy ko'rib chiqish, kamchiliklarini va hajmlar tendentsiyasini (o'sayotgani yoki qisqarib borishi) aniqlash;

2. Xizmatlar hajmining umumiy o'sish darajalarini ta'minlovchi omillar tizimini aniqlash:

3. Tashkil etilishi mo`ljallangan infratuzilmalar hisobiga erishilishi mo`ljallangan xizmatlar hajmi;

4. Mavjud faoliyat ko`rsatayotgan shaxobchalar quvvatlaridan to`liq va samarali foydalanish hisobiga erishiladigan xizmatlar hajmi;

5. Kredit mablag`laridan foydalanish, chet el investitsiyalarini jalb etish evaziga erishiladigan xizmatlar hajmi (modernizatsiya);

6. Tadbirkorlarga beriladigan imtiyozlar, yaratilayotgan qulay shart – sharoitlar, moliyaviy qo`llab-quvvatlash, er maydonlari ajratilishi hisobiga erishilayotgan xizmatlar hajmi;

7. Norasmiy tarzda xususiy tadbirkor yoki jismoniy shaxslar tomonidan ko`rsatilayotgan xizmatlarni to`liq hisobga olish evaziga erishilgan hajmi

Xizmat, Savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlari bo`yicha:

- faoliyat ko`rsatayotgan savdo shaxobchalarining ish vaqti tartibini haridorlarning bo`sh vaqtlariga moslashtirish (saxar, tushlik va kechki vaqtlarda) evaziga qo`shimcha savdo xizmatlarini oshirish;

- maxalliy hokimiyat mutasaddi tashkilot rahbarlari bilan birgalikda: savdo va maishiy xizmat ko`rsatish shaxobchalarining inventarizatsiya natijalarini ko`rib chiqib, qo`shimcha tashkil etilishi lozim bo`lgan shaxobchalarni aholi yashash punktlari, tuman (shahar) va viloyat bo`yicha joylashtirish sxema rejasini tuzishlari;

- savdo shaxobchalarining soniga qarab er maydonlari ajratilishi, ularni auktsion bozoriga qo`yishi va foydalanilmay turgan bino qismlarini ijaraga berish bo`yicha reklamalar berishlari;

- xususiylashtirilgan, lekin bir necha yil mobaynida faoliyat ko`rsatmay turgan savdo shaxobchalar bo`yicha zaruriy hollarda qabul qilingan qarorlarni bekor qilishlari;

- savdo yarmarkalarini doimiy ravishda faoliyat ko`rsatib turishini ta'minlash evaziga qo`shimcha savdo xizmatlari ko`rsatish.

savdo, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat ko`rsatish faoliyati bilan shug`ullanish istagi bo`lgan xususiy tadbirkorlarga qulayliklar yaratish, hujjatlar rasmiylashtirishni soddalashtirish.

Transport xizmatlari bo`yicha :

-tashkil etilishi mo`ljallangan yangi marshrut yo`nalishlar tushumini aniqlash;

-nosoz yo`lovchi va yuk tashish transport vositalarini ta`mirlash va yangi olinadigan transportlardan tushadigan hajmlarni hisoblash;

-transport xizmatlari hajmiga yo`lovchilarga shaxsiy avtomobillarida hududlararo transport xizmati ko`rsatayotgan tashkillashtirilmagan transport xizmatlari hajmini statistika tomonidan qabul qilingan "Tashkillashtirilmagan xizmatlarni hisobga olish bo`yicha vaqtinchalik tavsiyanoma"si bo`yicha aniqlab qo`shish.

Aloqa va axborotlashtirish xizmati bo`yicha:

- raqamli ATSlar sonini ko`paytirish, har 100 ta yashovchiga (respublikada 2008 yil yakuni bo`yicha 6,3 ta) raqamli telefon apparatlar sonini jiplashtirish, mobil telefonlardan foydalanuvchilar sonining (respublika bo`yicha 6,2 mln.kishi yoki umumiy aholi sonining 22,7% tashkil etadi) viloyatdagi koeffitsientini ko`tarish hisobiga erishiladigan xizmatlar hajmini aniqlash;

- pochta aloqalari bo`limlarida, ayniqsa qishloq joylarda avtomatlashtirilgan moliya to`lovlariga o`tish, elektron pul o`tkazish;

- tashkilotlar ichida va tashkilotlararo hujjatlar aylanmasini qog`ozsiz elektron tizimiga o`tkazish hisoblariga erishilishi mo`ljallangan xizmatlar hajmi kupaytirish.

Moliya va bank xizmatlari bo`yicha:

- Bank-moliya xizmatiga kiruvchi xizmat turlari – mini- banklar soni, maxsus jamg`arma kassalar soni, aholining tijorat banklariga qo`yilmalari hajmi, plastik kartochkalar soni, terminallar soni, terminallar orqali bajarilgan operatsiyalar hajmi, tijorat banklarining ajratgan kreditlari hajmi, istemol

kreditlari hajmi, kichik biznes sub'ektlariga ajratilgan kreditlar hajmi kabi ko'rsatkichlarning yillik (choraklik, oylik) prognoz ko'rsatkichlarini har bir tumanda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari kesimida, lizing va sug'urta xizmatlari lizing (bank) va sug'urta kompaniyalari kesimida muddati va manzili aniq belgilanishi lozim. Ushbu belgilangan muddat va manzil bo'yicha har bir xizmat turining prognoz ko'rsatkichlarining bajarilishi har oyda nazorat qilish;

- Plastik kartochkalar bo'yicha oyma-oy aniq qaysi tijorat banki qaysi korxonada va tashkilotda, qancha miqdorda joriy qilishi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarining bajarilishi nazorat qilish;

- Terminallarni oyma-oy aniq qaysi tijorat banki qaysi savdo tashkilotida (aniq manzili ko'rsatiladi) joriy qilishi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarining ijrosi nazorat qilish;

- Har bir tijorat bankining ajratgan kreditlari hajmi, shu jumladan kichik biznes sub'ektlariga ajratilgan kreditlari hajmi (oyma-oy iqtisodiyot sektorlari kesimida) bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari nazorat qilish;

Ipoteka va iste'mol kreditlari hajmining prognoz ko'rsatkichlari oyma-oy hududda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari kesimida nazorat qilinadi. Bunda yosh oilalarga berilayotgan kreditlar alohida nazoratga olinishi lozim;

izing xizmatlari prognozi oyma-oy lizing ob'ekti, qiymati va muddati ko'rsatkichlari bo'yicha nazorat qilish;

Sug'urta xizmatlari prognozi oyma-oy – sug'urta turlari, ob'ektlari, qiymatlari bo'yicha har bir sug'urta kompaniyasi kesimida oyma-oy nozorat qilish;

Mehmonxonada va turizm xizmatlari bo'yicha:

- chet ellik turistlar bilan tuzilgan shartnomalar asosida keluvchilar sonini aniqlash, mavjud mehmonxonalarni kengaytirish, tarixiy yodgorliklarni tiklash, qurilishi mo'ljallangan mehmonxonalar tushumini aniqlash, chet elliklarni respublikaga jalb etish yo'llanmalarini joriy etish hisobiga erishiladigan xizmatlar hajmini kutarish.

Kommunal xizmatlar bo'yicha:

-Ichimlik suvi va gaz etib bormagan aholi yashash punktlarini qamrash, ko`p qavatli uylarga issiq, sovuq suv va gaz o`lchagichlarini o`rnatish;

- yakka tartibda uy-joy qurish va ta`mirlash ishlari, maxsus avtoulowlarda chiqindilarni olib ketish evaziga olinadigan xizmatlar hajmini oshirish.

Maishiy xizmat ko`rsatish bo`yicha:

- yangi tashkil etilishi ko`zda tutilgan maishiy xizmat ko`rsatish shaxobchalari sonining xizmatlarini hisobga olish;

- ko`rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash, mexnat bozorlari orqali aholiga ko`rsatilayotgan tashkillashtirilmagan xizmatlar hajmini to`liq hisobga olish lozim.

Boshqa xizmatlar bo`yicha:

- boshqa xizmatlar bo`yicha qo`shimcha tashkil etilishi ko`zda tutilgan bolalar sport inshootlari, pullik tibbiy xizmatlar, kompyuter klublari xizmatlar hajmlarini aniqlash

- avtomat o`yinlar, istirohat va dam olish bog`lari xizmatlari va boshqa xizmatlar hajmlarini aniqlash maqsadga muvofiq.

Axborot bozor iqtisodiyoti sharoitida eng arzon tovarlardan biri bo`lishi lozim. Chunonchi, asosiy daromad axborotga ega bo`lishdan emas, balki undan foydalanishdan olinishi kerak. Biroq, ma`muriy-buyruqbozlikka asoslangan xo`jalik davrida davlat bu sohada o`zining yakkahukmronlik mavqeini o`rnatdiki, bu holat haligacha tadbirkorlikning rivojlanishiga to`squinlik tug`diruvchi omil sifatida ta`sir qilib kelmoqda. SHunga ko`ra, barcha faoliyat ko`rsatayotgan tadbirkorlar uchun amaldagi qonunchilik, ularga aniqlik va o`zgarishlar kiritilishi, iqtisodiy hamkorlar, birja ma`lumotlari, aktsiya kotirovkalari va boshqalar to`g`risida to`liq va ishonchli axborotni imkon qadar eng past narxlarda taqdim etish davlatning majburiyatlaridan biri bo`lib hisoblanadi.

Tadbirkorlarni zarur axborotlar bilan ta`minlashda tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi ham etakchilik tashabbusini o`z qo`liga olishi mumkin. Bundan tashqari, Palata tadbirkorlar va aholi keng qatlamining

iqtisodiy bilim darjasini oshirish, bozor ko`nikmalarini hosil qilish va bu borada maslahat xizmatlari ko`rsatish ishlarini ham faollashtirishi lozim.

2.O`zbekiston Respublikasida moliyaviy muassasalarni boshqarishni takomillashtirish

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar moliyaviy muassasalarni boshqarishni takomillashtirishda kredit portfelini boshqarishda asosiy o`rinni aloxida olingan ssudalarning sifatini baholash mezonlarini ishlab chiqish va ularni baholash egallaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xorijiy mamlakatlarda kredit munosabatlarni rivojlanishi berilgan kreditlar sifatini baholash mezonlarining kengayishiga olib keldi. Jahon amaliyotida banklar tomonidan berilgan kreditlarning sifatini baholashning 10 xildan ortiq yo`nalishlari mavjud. Kreditning sifatini baholash kreditning maqsadi, uni to`lash usuli, mijozning kreditga layoqatlilik darajasi, uning qaysi tarmoqqa taalluqli ekanligi va mulk shakli, mijozning bank bilan munosabatining xarakteri, bankning mijoz to`g`risida to`liq axborotga ega ekanligi va uning etariligi darajasi, ssudalarning ta`minlanganligi, hajmi va boshka mezonlar kiradi.

Rossiyada kreditlar sifatini baholash ko`rsatkichlari cheklangan bo`lib, hozirgi kunda Rossiya Markaziy banki yo`riqnomasiga binoan bu sohada ikkita mezon qo`llaniladi. Bular ssudani qaytarishni ta`minlash darajasi va oldindan berilgan ssudalarni to`lashning xaqiqiy holati hisoblanadi.

Bank aktivlarining sifatini aniqlashga ularning kredit portfelini o`rnatilgan me`yorlar asosida tavsiflab chiqish orqali erishilishi mumkin. O`zbekistonda Markaziy bank tasdiqlagan ko`rsatmaga asosan tijorat banklari aktivlarini tavsiflash va ssudalar bo`yicha yo`qotishlar buyicha zahiralar tashkil qilish amalga oshirilmokda. O`zbekiston Respublikasining «O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki to`g`risida»gi va «Banklar va bank faoliyati to`g`risida»gi qonunlariga asosan aktivlarni tasniflash, muammoli yoki xarakatsiz kreditlar buyicha zahiralarini tashkil qilish amalga oshirilmoqda. Bu

me'yoriy hujjatlarga asoslanib banklar tomonidan berilgan kreditlar bo'yicha qarzlarning sifati, mijozning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari, uning moliyaviy holati, kredit riskining darajasi, kelajakda kreditni qaytib berish imkoniyati, kreditning ta'minlanganlik darajasi, kreditni to'lash muddatidan necha kun o'tganligi kabilarni inobatga olgan holda guruhlariga tasniflanadi. Kreditlarni tasniflashdan asosiy maqsad qarz oluvchining to'lay olish qobiliyatini hamda qarzning o'z vaqtida qaytarilishi uchun pul oqimining holatini baholashdan iborat.

Hozirgi vaqtda markazlashtirilgan kreditlar davlatning qarorlariga asosan ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish uchun milliy valyutada yoki xorijiy valyutada berilishi mumkin.

Tasniflangan kreditlarning qaysi guruhga kirish darajasi tez sotiladigan aktivlar va yuqori likvid mablag'larning mavjudligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan 9 noyabr 1998 yilda tasdiqlangan №242-sonli «Aktivlar sifatini tasniflash, mumkin bo'lgan yo'qotishlar bo'yicha tijorat banklari tomonidan zahiralar tashkil qilish va undan foydalanish qoidasi»ga asosan tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar yuqorida keltirilgan mezonlar bo'yicha «yaxshi», «standart», «substandart», «shubhali», «umidsiz» yoki ishonchsiz kreditlarga tasniflanadi.

5-jadval

Kreditlarning sifati bo'yicha shakllantirilishi lozim bo'lgan zahiralar me'yori.¹⁶

Kreditlarning sifati bo'yicha sinflari	Ehtimoliy yo'qotishlar bo'yicha zahiralar ajratish me'yori
Yaxshi	-
Standart	10%
Substandart	25%
Shubhali	50%
Ishonchsiz	100%

¹⁶ O'zR Markaziy bankining «Aktivlar sifatini tasniflash, mumkin bo'lgan yo'qotishlar bo'yicha tijorat banklari tomonidan zahiralar tashkil qilish va undan foydalanish qoidasi», 9 noyabr 1998 y, №242.

Tijorat banki boshqaruvi qaroriga ko`ra, kredit qo`mitasining xulosasi bo`yicha va bank kengashi bilan kelishuviga binoan ishonchsiz deb topilgan beshinchi sinf kreditlari ssudalar bo`yicha ehtimoliy yo`qotishlarga shakllantirilgan zahira hisobiga, zahira etishmagan taqdirda 31203 hisobvaraqa - «taqsimlanmagan foyda» hisobiga balansdan chiqariladi.

O`zbekiston Respublikasi banklari amaliyotida «yaxshi kreditlar» bo`yicha ehtimoliy yo`qotishlar bo`yicha zahiralar tashkil qilinmaydi.

Amaliyotda tijorat banklari standart kreditlar bo`yicha - 10%, substandart kreditlar bo`yicha - 25%, shubhali kreditlar bo`yicha - 50% va ishonchsiz kreditlar bo`yicha - 100% atrofida zahiralar tashkil qilishlari va yuqorida keltirilgan kreditlar bo`yicha yo`qotishlar shu zahiralar hisobidan qoplanishi lozim.

Ssuda aktivlarini tahlil qilish bankning kredit portfelini sifati to`g`risida axborot berishi mumkin. Bank kreditlarining umumiy belgilari va xususiyatlariga qarab kredit portfelini tasniflab, mumkin bo`lgan yo`qotishlarni qoplash bo`yicha yaratish lozim bo`lgan zahira summasi aniqlanadi. Yo`qotishlarni qoplash maqsadida tashkil qilinadigan zahiralar miqdorining barcha banklar uchun bir xilligini ta`minlash uchun mumkin bo`lgan yo`qotishlarni qoplash uchun tashkil qilingan zahiraning bankning ustav va zahira kapitalariga nisbatini belgilab beruvchi ko`rsatkichni hisoblash lozim. Shu nisbat asosida tijorat banki aktivlar portfelining sifatini «o`ta kuchli»dan «qoniqarsiz»gacha baholash va kredit portfelining sifatiga I-V bo`lgan reyting ballini berish mumkin.

Kredit portfelining sifatini baholashda yagona yondashuvga erishish maqsadida keltirilgan reytingga qo`shimcha ravishda kredit portfelining ishonchliligini aniqlashning balli tizimidan foydalanish mumkin. Buning uchun avvalambor kreditning qaytarilmaslik riskini hisoblash lozim. Bu ko`rsatkich (Rk) ni ehtimoliy yo`qotishlarni qoplash uchun tashkil qilinishi zarur bo`lgan

zahiralar summasini (RS) kredit portfeli summasi (Kr) ga bo'lish yo'li bilan aniqlash mumkin:

$$Rk=PC/Kp*100\%$$

Kreditning qaytarilmaslik riski asosida, biz tijorat bankining kredit portfeli sifatiga quyidagicha reyting baholarni berishimiz mumkin.

6-jadval

Kredit portfelinin sifatini baholash mezonlari¹⁷.

Kreditning qaytarilmaslik riski	0-4,0	4,1-8,0	8,1-12,0	12,1-16,0	16,1-20,1
Reyting baho (ball)	1	2	3	4	5
Kredit portfelinin sifat darajasi	o'ta kuchli	kuchli	o'rtacha	xavfli	qoniqarli

Bank kredit portfeli «4,1» va undan yuqori ballga baholansa, bankda kredit bo'yicha riskni yuzaga kelish muammosi borligini ko'rsatadi. Bu esa vaqtda chora ko'rilmasa, risk darajasining oshib ketishi bank uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi to'g'risida xulosa qilishiga asos bo'ladi. Bunday banklar faoliyatini O'zR Markaziy banki nazorat qilib borishi, majburiy zahiralar bo'yicha talablarni oshirish kabi choralar ko'rishi mumkin.

Tijorat bankining kredit portfelinin sifat darajasi bank tomonidan beriladigan kreditning ta'minlanganligiga ham bog'liq. Bu ta'minlanganlikning bo'lishi berilgan kredit bo'yicha riskning yuqori yoki past bo'lishini belgilab beradi. Agar berilgan kredit muammoli ta'minotga ega bo'lsa va ushbu ta'minotning qiymati qaytarilmagan qarz miqdoridan kam bo'lsa, bu holda ushbu kredit «shubhali» yoki «ishonchsiz» deb tavsiflanadi. «Shubhali» yoki «ishonchsiz» deb tasniflangan muammoli kredit ta'minotga ega bo'lmasa, lekin ba'zi bir aniq omillar asosida yaqin kelajakda qisman qoplanish ehtimoli bo'lsa, u holda bunday ssuda yuqorida aytib o'tilgan qoplanish ehtimoli bo'lgan

¹⁷ O'zbekiston respublikasi markaziy banki ma'lumotlari

to`lanmagan qarz miqdorida shubhali deb, qarzning qolgan qismi esa «ishonchsiz» deb tavsiflanadi. Kredit portfelining sifat darajasini quyidagi bosqichlar bo`yicha tahlil qilish mumkin.

- 1- ta'minlanganlik darajasi;
- 2- xaqiqiy to`lash holati bo`yicha;
- 3- har bir kreditning risk darajasi buyicha;
- 4- kreditlarning turi guruhi buyicha;
- 5- kredit portfelining umumiy riskini aniklash;
- 6- kredit portfelining sifati bo`yicha zahira fondlar tashkil qilish;
- 7- kredit portfelining holati bo`yicha bankning kelgusi kredit siyosatini ishlab chiqish.

Tijorat banklarining kredit portfelining sifati pastligi to`g`risidagi ma'lumotlar bank tomonidan berilgan kreditlarning salmoqli qismini undirib olishda muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Bank faoliyatiga ishonchsiz kreditlar salbiy ta'sir ko`rsatadi. Ular bank daromadining kamayishiga, bankning moliyaviy ahvolidan yomonlashuviga olib keladi.

Ba'zi banklarda kreditlanadigan ob'ektlar bo`yicha kreditlarning uzoq muddatliligi, kreditlar bo`yicha kafolatlangan ta'minotning yo`qligi, berilgan kreditlar bo`yicha riskning yuqori bo`lishiga asos bo`ladi. Undan tashqari, investitsiyalangan ob'ektlardan ko`plari yangi qurilayotgan ob'ektlar bo`lib, ularning qurilishini olib borayotgan quruvchi tashkilotlar bo`lib, mablag`lar sarfiga javob beruvchi huquqiy jihatdan garant tashkilotlar sifatida faoliyat ko`rsata olmaydilar.

Qayta texnik jihatdan ta'mirlanayotgan yoki rekonstruktsiya qilinayotgan korxonalar davlat mulkidagi korxonalar bo`lib, ularning mulki olingan kredit bo`yicha garant sifatida qabul qilinmaydi. Undan tashqari, ba'zi ob'ektlar bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining pul- kredit siyosati hay'atining qarori bo`yicha olingan kreditlar bo`yicha foiz stavkalarini ob'ektlar ishga tushganidan keyin to`lanishi mumkin.

Bu o`z navbatida moliyaviy jihatdan uncha barqaror bo`lmagan tijorat banklarining moliyaviy ahvoriga salbiy ta'sir ko`rsatishiga, ularning daromadining kamayishiga, likvidlilik va to`lovga layoqatlilik ko`rsatkichlarining tushib ketishiga, banklarning resurs bazasiga, mijozlar bilan hisob-kitoblarning o`z vaqtida olib borilishiga salbiy ta'sir ko`rsatishi mumkin.

Tijorat banklari kredit portfelining sifatini tavsiflovchi ko`rsatkichlardan biri tasniflangan kreditlarning tarkibi va darajasi ekanligini hisobga olgan holda, kredit portfeli sifat tahlilini quyidagi jadval yordamida ko`rib chiqamiz.

7-jadval

«Turon» OATB da qishloq xo`jaligi korxonalariga berilgan kreditlarning tasniflanishi (jamiga nisbatan foizda)¹⁸

№	Ko`rsatkichlar	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2008 yilda 2003 yilga nisbatan o`zgarishi, foizli punkt
1	Yaxshi kreditlar	86,0	85,0	87,0	94,0	95,6	97,5	11,5
2	Standart kreditlar	14,0	15,0	13,0	6,0	4,4	2,5	-11,5

Jadval ma'lumotlaridan ko`rinadiki, Agrobank tomonidan qishloq xo`jaligi korxonalariga berilgan kreditlarning tasniflangan tarkibida mutlaq yuqori salmoqni "yaxshi" toifasidagi kreditlar egallaydi. Bu esa, bank kredit portfelining sifati mazkur ko`rsatkich bo`yicha talab darajasida ekanligidan dalolat beradi.

Tijorat banki kreditlarining hajmida substandart, shubhali va umidsiz kreditlarning yuqori salmoqqa ega bo`lishi uning moliyaviy holatiga nisbatan kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltirdi. Chunki, mazkur toifalarga mansub

¹⁸ OATB «Turon» yillik hisoboti ma'lumotlari asosida hisoblandi.

kreditlar bo'yicha mos ravishda 25 foiz, 50 foiz va 100 foiz miqdorida foyda hisobidan zahira ajratmalari tashkil qilishga to'g'ri keladi.

Tijorat banklari kreditlari hajmini oshirish, uning yuqori sifat ko'rsatkichlariga erishishini ta'minlash bevosita ularning kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zahira ajratmalarining normativ darajasini ta'minlashga bog'liq.

Tijorat banklari kredit portfelining sifatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan yana biri muddati o'tgan kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'i hisoblanadi. Xalqaro bank amaliyotida ushbu ko'rsatkichning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan chegaraviy darajasi 5 foizni tashkil etadi. Agar ushbu ko'rsatkichning amaldagi darajasi 5 foizdan oshsa, tijorat banki kredit portfelining sifati sezilarli darajada pasayganligidan dalolat beradi. SHuning uchun ham Germaniya va Frantsiyaning yirik tijorat banklarida muddati o'tgan kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'i 5 foizga etishi bilan, ularning 2,5 -3 foizi bankning balansidan chiqariladi.

Ma'lumki, tijorat banklari faoliyatida xavfli bo'lgan kredit qo'yilmalar - bu muammoli kreditlar shakliga kirgan qo'yilmalardir. Substandart va undan past tasniflangan kreditlar muammoli kreditlar toifasiga kiradi.

Kreditning o'z vaqtida qaytarilmasligini va shu sababali muammoli ssudaning yuzaga kelishini quyidagi belgilar orqali bilish mumkin:

- Qarz oluvchi tomonidan belgilangan muddatda balansning takdim etilmasligi;
- Debitorlik qarzning birdaniga o'sib ketishi;
- Qisqa muddatli aktivlar ulushining kamayishi;
- Qisqa muddatli kreditorlik qarzlarning noproportsional o'sishi;
- Likvidlik koeffitsientining pasayishi;
- Aktivlar tarkibida asosiy kapital ulushining oshishi;
- Savdo hajmining pasayishi;
- Muddati o'tgan qarzlarning o'sishi;
- Operatsion faoliyatdan ko'rilgan zararlarning paydo bo'lishi.

Muammoli kreditlar odatda qarz oluvchining kreditni to'lashi uchun etarli pul mablag'lari bo'lmagan hollarda yuzaga keladi. Ba'zi hollarda ular mijozning schyotida mablag'lari bo'la turib, kreditni to'lashni xohlamaganda ham yuzaga kelishi mumkin. Kredit bo'limi xodimlari shu belgilar yuzaga kelishini birinchi bo'lib sezmoqliklari va bankni kredit bo'yicha yo'qotishlardan saqlovchi chegara bo'lishlari lozim. Ular bank va mijoz manfaatini saqlab qolgan holda bu moliyaviy qiyinchiliklardan chiqish yo'llarini ishlab chiqishga yordam berishlari, boshqacha aytganda, banklar to'lov kuni kreditni undirishni o'ylab o'tirmasdan, mijoz faoliyatida muammolar yuzaga kelgan vaqtdan boshlab mijozga yordam berishlari, ularga ta'sir ko'rsatishlari zarur. Buning uchun bank doimo mijozning faoliyatidan boxabar bo'lishi, o'zi uchun zarur axborotlarni yig'ib, tahlil qilib borishi zarur.

Shu bilan birga, muammoli kreditlarni oldindan aniqlash tizimini yaratish juda qiyin va bunda inson omili salbiy rol o'ynaydi. Tijorat banklarida muammoli kreditlar bo'yicha ishlarni kredit bo'limi xodimlari olib boradi. Bu jarayonning ijobiy tomoni shundaki, kredit bo'limi xodimi shu kreditni berganligi uchun mijozni, uning moliyaviy ahvolini yaxshi bilishi mumkin. Ikkinchi tomondan shu bank xodimi etarli nazorat olib bormaganligi sababli shunday muammoli kredit yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Yana qolaversa, bu kredit xodimi shu kredit sohasida mijozga yon berishi mumkin. Shu sababli bu borada professor Sh. Z. Abdullaeva tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlovchi maxsus bo'limlar tashkil qilishni taklif etganlar. Hozirgi kunda tijorat banklarida shunga o'xshash bo'limlar tashkil qilingan bo'lsa-da, ularning faoliyati taklif qilinayotgan holatdan boshqa tomonlarini ham o'z ichiga oladi.

Kredit uchun javobgar xodim, bankni og'ir axvolga olib borgani sababli tanqidga qolmasligi uchun kreditni yomonlashganligi haqida xabar qilmasligi mumkin. Bundan tashqari, muammoli kreditlar aniqlab bo'lingandan keyin ham, bu kreditlar ular o'ylanganidan ortiqcha muammoli bo'lib chiqadi. Shu tarzda qimmatli vaqt ketadi. Lekin eng achinarlisi shuki, bank rahbariyati o'z kredit portfelining ushbu muammosini yashirishi bilan birga ushbu kredit bilan bog'lik

xarajatlarning o'rnini yangi riskli kreditlar bilan to'ldirishga harakat qilishadi. Bunday hollarning oldini olish uchun kredit bo'limi faoliyati tez-tez ichki audit tomonidan tekshirilib turishi, muammoli kreditlar, ularning sabablari aniqlanib turishi lozim.

Ma'lumki, bank kreditlarining sifati bank tizimi va butun iqtisodiyotning holatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi. Xalqaro ekspertlarning fikricha, yalpi kredit portfelida muammoli kreditlar ulushining 10-15% dan ortishi bank sektorida tizimli inqirozdan darak beradi.¹⁹ Aksariyat mamlakatlar kredit portfelining qoniqarsiz sifati muammosini echish uchun qator chora-tadbirlar qo'llashga majbur edilar.

Prezidentimiz I.A.Karimovning "Qarz olish oson, bu hammamizga ma'lum, lekin uni bir kun kelib to'lash ham kerak"²⁰, "...qarz olishdan oldin uzishni o'ylash kerak...", degan fikrlari muhimdir.²¹

G'arbning qator iqtisodchilari fikricha, kredit bo'yicha to'lovlarning grafik bo'yicha 90 kundan ortiq kechikishi yoki kredit shartnomasi shartlarining buzilishi, kreditning muammoli ekanligidan dalolat beradi.²² So'nggi berilgan ta'rif mamlakatimizda mavjud aktivlar sifatini tasniflash bo'yicha me'yoriy hujjatlariga qisman zid bo'lmoqda. Kredit bo'yicha foizlar va qarz 30 kundan ortiq muddat davomida kechiktirilgan kreditlar substandart kreditlar sifatida tasniflanishi lozim.²³ SH.Z.Abdullaeva ta'kidlashicha, substandart kreditlar ham o'z vaqtida qaytarilmaganligi tufayli muammo keltiruvchi kreditlar sifatida tahlil qilinishi mumkin.²⁴

Shuningdek, iqtisodiy adabiyotda muammoli kredit deganda, ob'ekti, sub'ekti va ta'minotiga nisbatan bank tomonidan shubha paydo bo'lgan kredit

¹⁹ Kazartsev A. Reshenie problemi «ploxi» kreditov: mejdunarodniy opit // Bankovskoe delo. – 2007. – №3. – S. 63.

²⁰ Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida/ Tuzuvchi Mullajonov F.M.- Toshkent, 2005. 8-b.

²¹ O'sha manba 517-b.

²² Fraser D., Gup B., Kolari J. Commercial banking/ The Management of Risk. St Paul, MN, 1995. – R. 623.

²³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 9 noyabrdagi 242-son "Tijorat banklari va ularning filiallari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ssudalar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar o'rnini qoplash uchun tashkil etiladigan zahirani shakllantirish va undan foydalanish" Tartibi.

²⁴ Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. Toshkent, 2002. 187-b.

tushuniladi²⁵, degan qarashlar mavjud. Ularning fikricha, substandart, shubhali va ishonchsiz kreditlarni, shu jumladan, asosiy to'lov va kredit foizlari bo'yicha qisqa muddatli qarzdorlikka ega bo'lgan, shuningdek, kredit shartnomasi shartlarini o'zgartirmasdan, hech bo'lmasa, bir marotaba qayta rasmiylashtirilgan kreditlar ham muammoli deb tushuniladi. Bu ta'rifning so'nggi jumlasini munozarali bo'lib, kreditni qayta rasmiylashtirishning asosida shartnoma shartlarini o'zgartirish yotadi. Ushbu shartlarni o'zgartirmaslik esa kreditni qayta rasmiylashtirishning mazmuni va maqsadiga ziddir.

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy va huquqiy islohotlar banklar bilan ularning kreditlaridan foydalanuvchi mijozlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Biroq bu jarayonda yutuqlar bilan bir qatorda o'tish davriga xos bo'lgan ba'zi qiyinchiliklar ham mavjud bo'lmoqda. Bu borada hozirgi vaqtda qaytmayotgan kreditlar muammosi, ayniqsa, ahamiyatlidir.

Muammoli kreditlar bilan bevosita ishlayotgan bank mutaxassislarining fikrlarini hisobga olgan holda bunday kreditlarning respublikamiz banklari kredit portfelida paydo bo'lish sabablarini tadqiq etishga harakat qildik.

O'zbekiston Respublikasida muammoli kreditlar kelib chiqishining asosiy sabablarini quyidagicha turkumlash mumkin:

- kredit oluvchining moliyaviy ko'rsatkichlarini, kredit mablag'laridan foydalanish bo'yicha biznes-rejalarini, investitsion loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslanishini past darajada tahlil qilinishi;

- qarzdorning kredit mablag'laridan foydalanishi ustidan monitoringni sifatsiz olib borilishi, ya'ni qarzdorning moliyaviy holatini yomonlashishi, pul oqimlarining salbiy dinamikasi holatlarida kreditni restrukturizatsiyalash hamda kreditning statusini o'zgartirishni ham qamrab oluvchi choralarni o'z vaqtida ko'rmaslik;

- banklar hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga turli davlat organlarining aralashuvi;

²⁵ Upravlenie deyatelnostyu kommercheskogo banka (bankovskiy menedjment)/ Pod red. d-ra ekon. nauk, prof. Lavrushina O.I. – Moskva, 2002. – S. 456.

- milliy valyuta devalvatsiyasi, ya'ni xorijiy valyutadagi kreditlar bo'yicha investitsion davr mobaynida ayirboshlash kurslarida ortiqcha farqning paydo bo'lishi.

Muammoli kreditlarni bartaraf etish amaliyoti samarali bo'lishi uchun ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash, tasniflash muammoli kreditlarni bartaraf etish jarayonining asosiy va dastlabki bosqichlaridan biridir.

8-jadval.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida muddati o'tgan qarzdorlik dinamikasi ²⁶

Ko'rsatkich	2007	2008	2009	2010	2011
Jami berilgan kreditlar (mln. so'm)	3553095,5	3830100,5	4095400,0	4757400,0	6 371900,0
Jami muddati o'tgan kreditlar (mln. so'm)	571199,7	821834,9	658039,5	844949,8	644770,9
Muddati o'tgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi (%)	16.1	21.5	16.1	17.8	10.1
Kreditlar hajmining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati (%)	-	107.8	107,0	116,2	133,9
Muddati o'tgan kreditlarning o'tgan yilga nisbatan o'sishi(%)	-	143.9	80.1	128.4	76.3

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, muddati o'tgan qarzdorlikning berilgan kreditlardagi ulushi 5 yil ichida goh o'sib, goh pasaygan. Jumladan, 2007 yilda muddati o'tgan kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 16.1% dan 2008 yilda 21.5%ga o'sgani kuzatilgan bo'lsa, 2009 yilda u yana pasayish tendentsiyasiga ega bo'lgan, ya'ni 16.1%ni tashkil etmoqda. 2010 yilda esa, muddati o'tgan qarzdorlik ulushi yana oldingi yilga nisbatan o'sib, 17.8% ni tashkil etgan. 2011 yilga kelib, muddati o'tgan kreditlarning dinamikasi pasayish tendentsiyasiga ega bo'lgan va u 10.1% ga pasaygan. Agar bu holatni berilgan jami kreditlar xajmi dinamikasi bilan bog'laydigan bo'lsak, berilgan

²⁶ Markaziy bank ma'lumotlari asosida hisoblangan.

kreditlar xajmi faqatgina 2009 yilda bir oz pasaygan xolos. Qolgan yillarda esa u yuqori o`shish sur`atlariga ega, muddati o`tgan kreditlarning oldingi yilga nisbatan o`shish tendentsiyasini kuzatadigan bo`lsak, 2008 yilda uning sur`ati jami berilgan kreditlar xajmining o`shish sur`atidan yuqori, lekin 2009 yilga kelib muddati o`tgan qarzdorlik 2008 yilga nisbatan pasaygan va berilgan kredit hajmining o`shish sur`atidan past. 2010 yilda berilgan jami kreditlar hajmi o`sib, oldingi yilga nisbatan 116,2% ni tashkil etgan bo`lsa, unga mos ravishda muddati o`tgan kreditlar hajmi ham o`shish tendentsiyasiga ega bo`lib, 128.4% ni tashkil etgan. Ushbu yilda muammoli kreditlarning o`shish sur`ati jami berilgan kreditlar o`shish sur`atidan yuqori bo`lgan. 2008 yilda esa, ancha ijobiy holni kuzatish mumkin. Bu yilga kelib berilgan kreditlar xajmining o`shish sur`ati ancha yuqori, ya`ni 133,9% ni tashkil etgan bo`lsada, muddati o`tgan qarzdorlik ulushi oldingi yilga nisbatan pasayish tendentsiyasiga ega bo`lgan. Banklarda yuzaga kelgan muammoli kreditlarni berish belgilariga qarab quyidagi guruhlarga bo`lib, tasniflash maqsadga muvofiqdir. Bular:

- Bankning o`z qarori bo`yicha berilgan kreditlar;
- hukumat qarori bo`yicha berilgan kreditlar;
- Vazirliklar kafolati bo`yicha berilgan kreditlar;
- Boshqa turli qaror va kafolatlar bo`yicha berilgan kreditlar.

Agar bank barcha riskni o`ziga qabul qilgan holda o`zi kredit berishga qaror qilib, bu kredit bo`yicha muammolar yuzaga kelgan bo`lsa, u holda bank mijozning aktsiyadorlik munosabatini ko`rib chiqishi lozim. Agar mijoz bankning aktsiyadori bo`lsa, kreditni qaytarish masalasini uning aktsiyadorlik jamiyatidagi salmog`i hisobidan amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir.

Moliya Vazirligida hukumat kafolati bo`yicha berilgan, lekin muammoli kreditlarga aylangan kreditlar bo`yicha ish olib boruvchi agentlik-emitentlarni tashkil qilish lozim. Bu agentlikka obligatsiyalar chiqarish xuquqi berilib, muammoli kreditlar bo`lgan banklar shu obligatsiyalarni sotib olish yo`li bilan muammoli kreditlar salmog`ini qoplashi mumkin. Obligatsiyalar uzoq muddatga ega bo`lgan hollarda banklar ular bo`yicha dividend olish imkoniga ega

bo`lishlari lozim. Muammoli kreditlar bozorini tashkil qilib unda muammoli kreditlarni va ular bo`yicha banklar olgan obligatsiyalarni sotishni yo`lga qo`yish lozim.

Muammoli kreditlar yuzaga kelish sabablari bo`yicha bir-biridan farq qilsada, ularning oldini olishda qo`yidagi yondashishlar qo`l kelishi mumkin. Bunda:

- qarzni restrukturizatsiya dasturini ishlab chikish;
- qo`shimcha hujjatlar va kafolatlar olish;
- qo`shimcha fondlarni to`xtatish yoki qo`shimcha in`ektsiya qilish;
- Garovni sotish;
- Boshka aktivlarni sotish;
- Kafolat bo`yicha to`lovni talab qilish;
- Boshqaruvni almashtirish;
- Menejment ishlarini olib borish;
- huquqiy ishlarni ko`rib chiqish va boshqalar.

Bizga ma`lumki, tijorat banklarining ishonchliligi va barqarorligini ta`minlash va mustahkamlash Markaziy bank tomonidan muvofiqlashtirib boriladi. Shuning uchun banklar tizimining samarali va barqaror faoliyat ko`rsatishini ta`minlash masalasi turli mamlakatlar Markaziy bankining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Har bir mamlakatda bu sohada o`rnatiladigan nazorat Markaziy bank tomonidan tijorat banklarida ularning aktivlari bo`yicha mumkin bo`lgan yo`qotishlarni qoplash uchun zahiralar tashkil qilish va uni doimo barqaror ushlab masalasini qo`yadi.

Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar sifatining pastligi, ularni to`lash bo`yicha muammolarning ko`pligi bank faoliyatiga salbiy ta`sir ko`rsatadi va bank tomonidan kredit siyosatini tuzish va uni olib borishda ma`lum kamchiliklarga yo`l qo`yilganidan dalolat beradi. Ba`zi banklar tomonidan berilgan kreditlar sifatini pastligini quyidagi sabablar tufayli, ya`ni birinchidan, kreditlar berishda mijozning kreditga layokatlilik ko`rsatkichlari, ularning moliyaviy ahvolidan yaxshi tahlil qilinmaganligi, ikkinchidan,

kreditning ta'minlanganligi to'g'ri aniqlanib, rasmiylashtirilmaganligi va uchinchidan, o'z vaktida, to'g'ri kredit monitoringi o'tkazilmaganligi tufayli yuzaga kelgan deb xulosa kilish mumkin.

Yuqorida bayon etilgan fikr va mulohazalar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- tijorat banklari faoliyati, ayniqsa kreditlash jarayoni risk bilan bog'lik. SHu sababli banklar faoliyatining barqarorligini ta'minlashda kredit portfelini oqilona boshqarish muhim o'rin tutadi.

- fikrlarni yagona tizimga jamlagan holda muammoli kreditlarga quyidagicha ta'rif berish mumkin: kredit risklarini amalda yaqqol namoyon bo'lishining natijasi bo'lib, ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra, kredit shartnomasi shartlarining buzilishi oqibatida, "substandart", "shubhali" hamda "umidsiz" kreditlar kategoriyasiga o'tib qolgan kreditlar muammolidir.

Muammoli kreditlar bilan ishlash faoliyatini tizimli ravishda olib borish maqsadida, muammoli kreditlarni: muddati, sifati, ta'minoti, resurs manbasi va kreditni berish to'g'risidagi qarorni qabul qiluvchi sub'ekti kabi asosiy yo'nalishlar bo'yicha tasniflash maqsadga muvofiq.

Muammoli kreditlarni yuqoridagi yo'nalishlar bo'yicha tasniflash ularni bartaraf etish uchun ishlarni to'g'ri va samarali rejalashtirishga yordam beradi. Bank amaliyoti ko'rsatishicha, kreditni qaytarishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda kredit bo'yicha undiruvni nimaga qaratish lozimligini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega.

Jahonning aksariyat mamlakatlarida ishlamayotgan aktivlar muammosini echish va bank sohasidagi inqirozni bartaraf etish uchun davlat banklardan muammoli aktivlarni sotib olgan. Ayrim mamlakatlarda hukumatlar tomonidan banklarning "yomon" aktivlari bilan maqsadli ishlash uchun maxsus korporatsiyalar tuzilgan. Xalqaro amaliyotda muammoli aktivlarni boshqarishda ikkita yondashuv qo'llaniladi: markazlashgan va markazlashmagan. Birinchi yondashuv davlat tomonidan butun bank tizimining muammoli aktivlarini sotib olish va boshqarish bo'yicha maxsus korporatsiya tuzilishini ko'zda tutadi.

Markazlashmagan usulning mohiyati esa, bankning tarkibida ishlamayotgan aktivlarni boshqarish bo'yicha tegishli tuzilmani tashkil etishdan iborat.

- Kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zahira ajratmalarining amaldagi darajasiga baho berish uchun esa quyidagilarga alohida e'tibor qaratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- bank tomonidan berilgan kreditlarning to'g'ri tasniflanganligiga;
- zahira ajratmalarini tasniflash asosida kreditlarning toifalariga mutanosib ravishda tashkil etilganligiga;
- foizlarni o'stirmaslik maqomiga ega bo'lgan kreditlar bo'yicha hisoblangan va muddati o'tgan foizlarni o'z vaqtida va to'liq tijorat banking balansidan chiqarilganligiga.

III bob buyicha xulosalar

Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar sifatining pastligi, ularni to'lash bo'yicha muammolarning ko'pligi bank faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va bank tomonidan kredit siyosatini tuzish va uni olib borishda ma'lum kamchiliklarga yo'l qo'yilganidan dalolat beradi. Ba'zi banklar tomonidan berilgan kreditlar sifatini pastligini quyidagi sabablar tufayli, ya'ni birinchidan, kreditlar berishda mijozning kreditga layokatlilik ko'rsatkichlari, ularning moliyaviy ahvolidan yaxshi tahlil qilinmaganligi, ikkinchidan, kreditning ta'minlanganligi to'g'ri aniqlanib, rasmiylashtirilmaganligi va uchinchidan, o'z vaktida, to'g'ri kredit monitoringi o'tkazilmaganligi tufayli yuzaga kelgan deb xulosa kilish mumkin.

Muammoli kreditlar bilan ishlash faoliyatini tizimli ravishda olib borish maqsadida, muammoli kreditlarni: muddati, sifati, ta'minoti, resurs manbasi va kreditni berish to'g'risidagi qarorni qabul qiluvchi sub'ekti kabi asosiy yo'nalishlar bo'yicha tasniflash maqsadga muvofiq.

Xulosa

Yuqorida keltirib o`tilgan ma'lumotlar asosida shuni xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatimiz tijorat banklarikreditlash faoliyatini olib borishda hali hamon qiyinchiliklar va muammolarga duch kelmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy muhit esa, tijorat banklari faoliyatida mavjud muammolarning oldini olib, mamlakatimizda bank ishining samaradorligini oshirish asosida xalqaro bank amaliyotiga mos keluvchi bank tizimini yaratishni taqozo qiladi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarining kredit siyosatiga, ularning kredit portfeli va uning sifatiga, undan foydalanish darajasiga katta e'tibor beriladi. Chunki, kredit portfelinig to'g'ri tashkil qilinishi banklarning samarali faoliyat yuritayotganligidan dalolat beradi.

Kredit portfelini boshqarishning asosiy yo`nalishlari qilib quyidagilarni ko`rsatish mumkin:

- Kredit risklarini darajasiga ta'sir ko`rsatuvchi omillarni aniqlash, ularni baholash va bartaraf etish;
- Qarz oluvchining kreditga layoqatliligini va uning moliyaviy ahvolini aniqlash, kredit riskini bashorat qilish;
- Muammoli ssudalarni oldindan aniqlash va ularni so`ndirish choralarini ishlab chikish;
- Kredit qo`yilmalarini diversifikatsiya qilishni, ularning likvidligini va daromadliligini ta'minlash;
- Kredit olgan mijoz bilan doimiy aloqada bo`lib turish;
- Kichik biznes sub'ektlarini qo`llab-quvvatlashdir.

Respublikamiz tijorat banklarining kredit portfelini boshkarishni takomillashtirish bilan bog`liq bulgan asosiy muammolar sifatida quyidagilarni ajratib ko`rsatish mumkin:

1. Tijorat banklari kredit portfelinig diversifikatsiya darajasining past ekanligi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, respublikamizning yirik tijorat banklarida kreditlarning asosiy qismini ma'lum tarmoqlarga mansub korxonalarda to'planganligi kuzatilmoqda. Bundan tashqari, kreditlarni ayrim mulk shaklidagi mijozlarda to'planishi bank uchun yuqori kredit riskini vujudga keltiradi. Masalan, davlat korxonalarining mulk shakli o'zgarishi bilan unga berilgan kreditni qaytarishda jiddiy muammolar yuzaga kelishi mumkin.

2. Respublikamizning bir qator tijorat banklarida kredit operatsiyalari buxgalteriya hisobini tug'ri tashkil etishda muammolarning mavjudligi.

Tijorat banklarida kredit operatsiyalari buxgalteriya hisobini tug'ri tashkil etish tijorat banking kreditlash amaliyoti samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir.

3. Respublikamizning yirik tijorat banklarida muammoli ssudalarning jami kredit quyilmalari hajmidagi salmog'ini o'sish tendentsiyasiga ega bo'layotgani.

4. Respublikamizning yirik tijorat banklarida kreditlash shakllaridan tulaqonli tarzda foydalanish muammosi.

Yuqorida kayd etilgan muammolarni hal etish uchun bizning fikrimizcha, quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Tijorat banklari kredit portfeli diversifikatsiyasini kengaytirish va kredit qo'yilmalaridan samarali foydalanish banklarni universallashtirishda va raqobatbardoshligini oshirishda yordam beradi hamda kredit xatarini pasaytirishni ta'minlaydi.

2. Banklarda kredit qo'yilmalarini nomutanosib taqsimlanishi tarmoqlarda aktivlarning xatarliligini oshiradi va boshqa tarmoqlarda resurslar taqchilligiga olib keladi. Kredit resurslarini diversifikatsiyalashdan samarali foydalanish zarur.

3. Bank likvidligini boshqarishda va Markaziy bank tomonidan iqtisodiy normativga rioya etish maqsadida jalb qilingan va joylashtirilgan mablag'larni muddati bo'yicha diversifikatsiya qilish natijasida, o'z kredit operatsiyalarini

rejalashtirishga yordam beradi. Bu bilan tijorat banki zarur bo`lgan likvidlilik darajasini ushlab turgan holda maksimal darajada yuqori daromadga erishadi.

4. Kredit portfelini shakllantirish jarayoni optimal kredit siyosatini aniqlash nuqtai-nazaridan uning diversifikatsiyalanishini ko`zda tutadi. Kreditlarning bir necha mijozlar ichida jamlanish darajasi va kreditlashning umumiy hajmi oshishi bilan bank kredit xatari ham o`sb boradi. SHuning uchun banklar doimo bir-biridan mustaqil bo`lgan ko`p sonli mijozlarga ozroq hajmdagi kreditlarni taqdim qilishga harakat qilishlari lozim. Bundan tashqari, kreditlarni quyidagi yo`nalishlar bo`yicha diversifikatsiyalashlari maqsadga muvofiqdir:

- muddatlari bo`yicha (qisqa va uzoq muddatli qo`yilmalar salmog`ini iqtisodiyotda kutilayotgan o`zgarishlarga va depozitlar muddatlariga bog`liq holatda tartibga solish);

- maqsadli yo`nalish bo`yicha;

- ta`minot bo`yicha;

- kredit uchun o`rnatilgan foiz stavkasi bo`yicha (qatiy belgilangan va suzib yuruvchi);

- tarmoqlar bo`yicha.

5. Kredit siyosati bank kredit resurslarining xatar darajasini, kreditlarning ta`minlanganlik darajasini, kreditlarning hududlar va tarmoqlar bo`yicha jamlanganligini, kreditlashning manbalari bo`yicha, mulk shakli bo`yicha tizimli tahlil qilishni nazarda tutib borishi lozim.

Shu o`rinda, jahon moliyaviy inqirozi va uning tijorat banklari kredit portfeliga ta`siri to`g`risida to`xtalib o`tmoq lozim. Jumladan, Prezidentimiz moliyaviy inqiroz holati va uning ta`sirida kelib chiqishi mumkin bo`lgan oqibatlarga doir fikrlarini davom ettirib, quyidagi xulosani ta`kidlab o`tdilar: «Avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko`rsatdi. Ayni vaqtda bu inqiroz asosan o`z korporativ manfaatlarini ko`zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatbaho qog`ozlar bozorlarida turli spekulyativ

amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan etarli darajada nazorat yo`qligini tasdiqladi»²⁷.

Nufuzli xalqaro ekspertlar va iqtisodchilarning ayrim umumiy xulosalari, ularning 2010 yilda jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendentsiyalari bo`yicha prognozlariga ko`ra, inqiroz avjga chiqqan davrda davlatlarning iqtisodiyotga aralashuvi birinchi navbatda bank-moliya tizimi likvidligini qo`llab-quvvatlashga, ipoteka kreditlari sohasidagi o`pirilishlarni bartaraf etilishga qaratilib, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlariga, ishlab chiqarishga, kichik biznes va tadbirkorlik sohalariga kam e`tibor berilgani vaziyatga salbiy ta`sir o`tkazishi mumkin.

2010 yilda va keyingi yillarda bank tizimida ipoteka va iste`mol kreditlari bo`yicha qaytarilmagan kreditlar hajmining o`sishi oqibatida bankrotlikning yangi to`lqini xavfi vujudga kelishi mumkin.²⁸

Tijorat banklari kredit portfelining sifatini oshirishning zaruriy shartlaridan biri diversifikatsiyalash tamoyiliga qat`iy rioya qilish ekanligi jahon moliyaviy inqirozi sharoitida yaqqol namoyon bo`ldi.

AQSh va Evropa Ittifoqi mamlakatlari hududida faoliyat ko`rsatayotgan qator tijorat banklari kredit portfelini diversifikatsiyalash tamoyilining buzilishiga yo`l qo`ydilar. Natijada ularning kredit portfeli hajmida ipoteka kreditlarining salmog`i 50 foizdan oshib ketdi. Holbuki, tijorat banklari kreditlarining 25 foizdan ortiq qismini bitta soha yoki tarmoqda to`planishi bank kredit portfelining diversifikatsiyalash tamoyilining buzilganligidan dalolat beradi va kredit xatarining kuchayishiga olib keladi.

Tijorat banklari kreditlari hajmini oshirish, uning yuqori sifat ko`rsatkichlariga erishishini ta`minlash bevosita ularning kreditlardan ko`riladigan zararlarni qoplashga mo`ljallangan zahira ajratmalarining normativ darajasini ta`minlashga bog`liq.

²⁷ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. – T.: O`zbekiston, 2009, 5-b.

²⁸ «Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqi`ti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir», O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2009 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2010 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma`ruzasidan.

Xalqaro bank amaliyotida kreditlardan ko`riladigan zararlarni qoplashga mo`ljallangan zahira ajratmalarining normativ darajasi sifatida zahira summasining tijorat banki aktivlari o`rtacha yillik qiymatining 0,5 foizidan oshib ketmaydigan qismi olinadi. Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklarining kredit siyosatlarida ushbu ko`rsatkichlarning normativ darajasi belgilab qo`yilishi va Boshqaruvga mazkur normativga rioya qilish majburiyati yuklanishi lozim.

Kreditlardan ko`riladigan zararlarni qoplashga mo`ljallangan zahira ajratmalarining amaldagi darajasiga baho berish uchun quyidagilarga alohida e`tibor qaratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- bank tomonidan berilgan kreditlarning to`g`ri tasniflanganligiga;
- zahira ajratmalarini tasniflash asosida kreditlarning toifalariga mutanosib ravishda tashkil etilganligiga;
- foizlarni o`stirmaslik maqomiga ega bo`lgan kreditlar bo`yicha hisoblangan va muddati o`tgan foizlarni o`z vaqtida va to`liq tijorat banking balansidan chiqarilganligiga.

Tijorat banklari kredit portfelining sifatini tavsiflovchi muhim ko`rsatkichlardan yana biri muddati o`tgan kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog`i hisoblanadi. Xalqaro bank amaliyotida ushbu ko`rsatkichning yo`l qo`yish mumkin bo`lgan chegaraviy darajasi 5 foizni tashkil etadi. Agar ushbu ko`rsatkichning amaldagi darajasi 5 foizdan oshsa, tijorat banki kredit portfelining sifati sezilarli darajada pasayganligidan dalolat beradi. SHuning uchun ham Germaniya va Frantsiyaning yirik tijorat banklarida muddati o`tgan kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog`i 5 foizga etishi bilan, ularning 2,5 -3 foizi bankning balansidan chiqariladi.

Tijorat banklari kredit portfelining sifatini oshirishning ustuvor yo`nalishlariga qat`iy amal qilish lozim, jumladan:

- tijorat banki kreditlarining 25 foizdan ortiq qismini bitta tarmoqda yoki sohada to`planib qolishiga yo`l qo`ymaslik;

➤ tijorat banki tasniflangan kreditlari tarkibida “yaxshi” toifasidagi kreditlarning salmog`ini 90 foizdan past bo`lmasligiga erishish;

➤ kreditlardan ko`riladigan zararlarni qoplashga mo`ljallangan zahira ajratmalarining normativ darajasini ta'minlash kerak.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari faoliyati, ayniqsa kreditlash jarayoni risk bilan bog`lik. Shu sababli banklar faoliyatining barqarorligini ta'minlashda kredit portfelini oqilona boshqarish muhim o`rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

I. O`zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O`zbekiston, 2008 yil.-40 bet.
2. O`zbekiston Respublikasining “O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki to`g`risida”gi qonun, T.: “O`zbekiston”, 1995.
3. O`zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati tug`risida”gi qonun, T.: “O`zbekiston”, 1996.
4. O`zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to`g`risida»gi qonuni. 04.04. 2002.
5. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 apreldagi «Bank tizimini yanada islox qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» gi qarori. «Xalq so`zi» 16.04.2005.
6. O`zbekiston Respublikasining “Xususiy korxonalar to`g`risida” gi Qonuni. 2003 yil 16 sentyabr.
7. O`zbekiston Respublikasi Qonuni. “Ta’lim to`g`risida”. 1997 yil 29 avgust.
8. O`zbekiston Respublikasi Qonuni. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to`g`risida”. 1997 yil 29 avgust.

II. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yuksaltirishdir. T., “O`zbekiston” 2009.- 42 b.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish-davr talabi.T., “O`zbekiston” 2009. - 52 b.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. I.A.Karimov. –T: O`zbekiston, 2009.–34 b.
4. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo`ljallangan iqtisodiy

dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan vazirlar mahkamasi majlisidagi ma`ruzasi // Xalq so`zi, 2009 yil 14 fevral.

5. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta`minlash - barcha islohat va o`zgarishlarimizning bosh maqsadidir. // Halq so`zi, 2008 yil 9 fevral.

III. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. “Tovar xom-ashyo birjalar faoliyatini takomillashtirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”. 2004 yil 1 iyun.

2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. “To`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalarni huquqiy himoya qilishni kuchaytirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”. 2003 yil 2 may.

3. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. “Xususiylashtirilgan korxonalarni korporativ boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”. 2003 yil 19 aprel.

4. Prezidentimiz I.A.Karimovning «2005-2006 yillarda korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturlari to`g`risida»gi Qarori. 2005 yil 14 mart.

5. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. “Oliy o`quv yurtlaridan to`lov-kontrakt asosida o`qish uchun ta`lim kreditlari berish to`g`risida”. 2001 yil 26 iyul.

IV. Darsliklar

1. Bekmurodov A.Sh., G`afurov U.V. O`zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirishva modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo`nalishlar. O`quv qo`llanma. T.: TDIU, 2007.

2. Balalova E.M., Kaurova O.V. Servisnaya deyatelnost: uchet, ekonomicheskii analiz i kontrol. M.: Delo i servis, 2006.

3. Voljenkov A.V. Natsionalnaya bezopastnost: teoriya, politika, strategiya. M., NPO, «Modul», 2000

4. Gluxov V.V.Menedjment.Piter, 2009, 608 s.
5. Goncharenko L.P.Menedjment investitsiy i innovatsiy.M., 2009, 160 b.
6. Gorfinkel V.Ya. «Ekonomika predpriyatiya». Uchebnik. - Moskva.: «YUNITI-DATA», 2008 g
7. Goyibnazarov B.K va boshqalar. Balans muammolari. T.: Adabiyot jamg`armasi, 2004. – 179s.
8. Ishmuxamedov A.E., Kalanov B.Z., Kalanova M.Z., Sunnatov M.N. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. - T.: TDIU, 2007.
9. Karlik A.E. i dr.Investitsionno`y menedjment.M., 2008, 216 s.
10. Lavrushina O.I. Bankovskiy menedjment.M., KNORUS, 2009,560 s.
11. Mazur I.I.,Shapiro V.D.Korporativno`y menedjment.M., 2008, 781 s. dlya vuzov. – M.: YUNITI_DANA, 2003. –349 s.
12. R.B.Cheyz, N.Dj.Ekvilayn, R.F.Yakobsning “Proizvodstvenno`y i operatsionno`y menedjment” - 480 s.

V.O`quv qo`llanmalar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Jaxon moliyaviy –iqtisodiy inqrozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning asosiy uo`llari va choralari” nomli asarini o`rganish bo`yicha o`quv qo`llanma. Tuzuvchilar: B.Yu. Xodiev, A.Sh. Bekmurodov, U.V.G`ofurov, B.K.To`xliev. – T.: Iqtisodiyot, 2009.-120 b.
2. Jukov E.F. Banki nebankovskie kreditno`e organizatsii i ix operatsii. M.: - Vuzovskiy uchebnik, 2007.
3. Jukov E.F. Dengi. Kredit.Banki. M.: - YUNITI-DANA, 2008.
4. Ivanova S.P. Dengi. Kredit.Banki. M.: «Dashkov i K», 2007.
5. Korobova Yu.I. Bankovskie operatsii. M.: -Magistr, 2007.
6. Kuznetsova E.I. Dengi. Kredit.Banki. M.: YUNITI-DANA, 2008.
7. Kuznetsova E.I. Bankovskoe delo. M.: YUNITI-DANA, 2007.
8. Kuptsov M.M.Denejnoe obrahenie finanso` i kredit. M.: -RIOR, 2007.
9. Lavrushin O.I. Bankovskie operatsii.M.: -KNORUS, 2007.

10. Lavrushin O.I. Bankovskoe delo.M.: -KNORUS, 2007.
11. Lavrushin O.I. i dr. Dengi, kredit , banki. M.: -KNORUS, 2007.
12. Lavrushin O.I. Osnovo` bankovskogo delo.M.: -KNORUS, 2008
13. Larona L.S i dr. Organizatsiya deyatelnosti kommercheskogo banka. M.: -ID «Yurisprudentsiya», 2007

VI. Internet

1. www.stat.uz – O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasining rasmiy sayti.
2. www.uza.uz - O`zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.
3. www.ceep.uz - O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Samarali iqtisodiy siyosat markazi rasmiy sayti.
4. www.bearingpoint.uz – USAID Bearingpoint Uzbekistan Economic Reform.
5. www.economy.com – AQShning Pensilvaniya shtatidagi Economy.com, Inc. Korporatsiyasi veb-sayti.
6. www.internetindicators.com – Iqtisodiy indikatorlar Internet veb-sayti.
7. www.economyworld.com – Axborot Texnologiyalari Assosatsiyasi veb-sayti.
8. www.economyworld.org - Axborot Texnologiyalari Assosatsiyasi veb-sayti.
9. www.md-management.ru – ofitsialno`y sayt Rossiyskoy kompanii “Konsaltingovaya gruppa MD”.
10. www.uzreport.com – SAIPRO konsalting kompaniyasiga tegishli O`zbekiston va butun dunyodagi biznes tizim va iste`molchilarga axborot etkazib berishga mo`ljallangan integratsiyalashgan internet loyiha.
11. www.uzsecurities.com – O`zbekiston Respublikasining qimmatli qog`ozlar bozori haqida axborot beruvchi rasmiy sayti.